

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
ERON-AFG‘ON FILOLOGIYASI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Pushtu tilida grammatik terminlar

BMIda pushtu tilida grammatik terminlarni strukturasini hamda grammatik terminlar leksik jihatdan tahlil qilingan, pushtu tiliga boshqa tillardan kirib kelgan grammatik terminlar son va sifat jihatidan tahlil qilingan. Shuningdek, pushtu tili grammatikasidagi terminlar struktur va leksik jihatdan tahlil qilingan. Pushtu tiliga o‘zlashgan va pushtu tilining ichki imkoniyatlari asosida shakllangan grammatik terminlar yig‘ilib, hajmi (taxminiy) aniqlanib, ular grammatik terminlar guruhlariga ajratilgan.

Bajardi: 5220100 – Filologiya va tillarni o‘qitish
yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabasi

Mamatqulov Oybek Axatovich _____

Ilmiy rahbar: Eron-afg‘on filologiyasi kafedrası
dotsenti, f.f.n., Vohidov A. _____

Toshkent-2014

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etiladi

Sharq filologiyasi va falsafa fakulteti
dekani f.f.n., dots. Omonov Q._____

« ____ » _____ 2014 yil

Eron-afgʻon filologiyasi kafedrası mudiri,
f.f.n., dots. Alimova X._____

« ____ » _____ 2014 yil

MUNDARIJA

Kirish	2
I. Bob. Pushtu tilida grammatik terminlarning leksik tahlili	7
1.1. Sof pushtu tilidagi grammatik terminlar.....	7
1.2. Arab va fors tillaridan o‘zlashgan grammatik terminlar.....	9
1.3. Ingliz tilidan o‘zlashgan grammatik terminlar.....	12
1.4. Gibrid grammatik terminlar	13
II. Bob. Pushtu tilida grammatik terminlar va ularning struktur tahlili	16
2.1. Fonetika va orfografiyaga oid terminlar	16
2.2. Morfologiyaga oid terminlar	21
2.3. Sintaksisga oid terminlar	32
2.4. Grammatik terminlarning struktur tahlili.....	38
2.4.1. Tub grammatik terminlar	39
2.4.2. Yasama grammatik terminlar	40
2.4.3. Qo‘shma grammatik terminlar.....	41
2.4.4. Murakkab yasama grammatik terminlar	42
Xulosa	44
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	46
Ilova	48

Kirish

Respublikamiz o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng, butun dunyo mamlakatlari, shu jumladan yaqin sharq mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatdi. Bu hamkorliklarning tobora mustahkamlanib borishi, biz sharqshunoslarga yangidan yangi imkoniyatlarni ochib berdi va shu bilan birga zimmamizga o'ziga xos vazifalarni yukladi. Bundan tashqari mamlakatimizda biz yoshlarga berilayotgan katta e'tibor kelajakdagi orzularimizga erishishimizda kuchli dalda bo'lib xizmat qiladi.

Mana shu haqiqatlarni nazarda tutib, yurtboshimiz I. A. Karimov o'z nutqlarida shunday deb ta'kidlaydilar: "Hozirgi paytda xorijiy va sharq tillarini o'rganish va o'rgatishga katta ahamiyat berilmoqda.Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarini mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir".¹

Muayyan bir kasbni egallamoqchi bo'lgan mutaxassis o'zi tanlagan sohaning turli jihatlarini bilishi kerak. Afg'on filologiyasi (tili va adabiyoti) ilmini egallamoqchi bo'lgan har bir afg'onshunos uchun tilni puxta egallash vazifasi nazarimizda birinchi o'rinni egallamog'i zarur.

Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug'aviy qatlamlaridagi o'rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda pushtu tili grammatikasini o'rgatish uchun rus va ingliz olimlarining kitoblaridan foydalaniladi. Lekin bu kabi kitoblarning barchasida grammatikani yoritib berishda grammatik terminning nomi rus yoki ingliz tilida berilgan. Shuning uchun pushtu tilida grammatik terminlar

¹ Karimov I. A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent:Sharq, 1997.- B. 8-9.

borasidagi ishlar dolzarb hisoblanadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining I bobida pushtu tilidagi grammatik terminlarning ketma-ketlikda ya'ni orfografiya, fonetika, morfologiya va sintaksisga oid 200 ga yaqin terminlarning izohi bilan keltirilishi hamda II bobdagi boshqa tillardan o'zlashgan grammatik terminlar va gibrid grammatik terminlarning klassifikatsiya qilinishi pushtu tilini o'rganuvchilar va pushtu tilining grammatikasi borasida ish olib borayotganlar uchun ahamiyati katta deb o'ylaymiz.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Pushtu tili haqiqatdan eroniy tillar tizimida eng kam o'rganilgan tillardan hisoblanadi. Afg'onshunoslikda leksikologiya masalalarini o'rganishga hozirgacha yetarli e'tibor qaratilmagan.² Bu sohada hozirgacha R.R.Sikoyevning³ ishini yoki A.Mannonovning "Pushtu tili leksikologiyasini"⁴ ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari pushtu tili borasida Rossiya olimlari K.A.Lebedev⁵, Z.M.Kalinina⁶, A.L.Gryunberg⁷ M.G.Aslanov⁸, L.S.Yatsevich⁹ hamda ingliz olimlari bo'lgan Raverti¹⁰, Elfenston¹¹lar tomonidan bir qator ishlar turli mavzularda amalga oshirilgan. O'zbeklardan esa A.Mannonov, E.Satsayevlarning pushtu tiliga oid ishlarini ko'rishimiz mumkin. Bular orasida grammatikaga oid kitoblar ko'p. Lekin aynan grammatik terminlarga to'xtalgan joyini toppish mushkul. Pashtunlarning o'zida XX asr oxiri, XXI asr boshlarida ikkita ko'zga ko'ringan grammatika kitob yaratildi. Bularning birinchisi Pokistonda chiqqan Xiyol Buxoriyning "د پښتو صرف و نحو" ("Pushtu tili grammatikasi") bo'lsa, ikkinchisi pushtunlashtirishning ilg'or tarafdori hisoblangan, pushtun Mujovir Ahmad Ziyoning "پښتو پښويه"¹² ("Pushtu tili grammatikasi") kitobidir. Mujovir Ahmadning kitobi Pokiston va

² Mannonov A.M., Quronbekov. A. Pushtu tili leksikologiyasi.-Toshkent, 2012.

³ Сикоев Р.Р. Именное словообразование в современном литературном пушту.- Москва, 1967.

⁴ Mannonov A.M., Quronbekov. A. Pushtu tili leksikologiyasi.-Toshkent, 2012.

⁵ Лебедев К.А. Афганистан: язык, литература, этнография.- Москва, 2003.

⁶ Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. - Москва, 1972.

⁷ Грюнберг А.Л. Очерк грамматики афганского языка (пашто).-Ленинград, 1987.

⁸ Асланов М.Г. Пушту-русский словарь.-Москва, 1985.

⁹ Яцевич Л.С., Терепко О.С. Учебник языка пушту. -Москва, 2001.

¹⁰ Raverti G.J. Selections from the poetry of the afgan language from the XVI to XIX century, - London,1860.

¹¹ Elfinsto M. An account of the kingdom of Caubul.-London.1815.

¹² مجاوير احمد زيا «پښتو پښويه» پاکستان، ۲۰۰۲

Germaniyada nashr qilingan. Lekin bu kitob ko‘pchilik tomonidan qabul qilinmagan. Chunki Mujovir Ahmad “Pashto pashviya”dagi grammatik terminlarni ishlatishda sof pushtucha grammatik terminlarni aholiga singdirish va o‘zlashgan grammatik terminlarni muomaladan chiqarish maqsadida ko‘pgina arxaik terminlardan foydalangan yoki ichki imkoniyatlar asosida yangi grammatik terminlar yaratgan. Lekin bu terminlarni tushunish uchun pushtunlarning o‘zi ham “pushtu tili arxaik so‘zlarining izohli lug‘ati”dan foydalanishiga to‘g‘ri keladi. Xiyol Buxoriyning “Də pashto sarf va nahv” kitobidagi terminlar arab tilidan o‘zlashganiga qaramay, ularning ta’rifi oddiy, oson va o‘quvchiga tushunarli berilgani bilan ajralib turadi. Shuning uchun bu kitob ko‘pchilik pushtunlar tomonidan o‘rganiladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishidan ko‘zlangan asosiy maqsad pushtu tilida grammatik terminlarni strukturasini hamda grammatik terminlarni leksik jihatdan tahlil qilish, pushtu tiliga boshqa tillardan kirib kelgan grammatik terminlarni son va sifat jihatidan tahlil qilishdir. Ushbu ishni amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- 1) Pushtu tili grammatikasidagi terminlarni struktur va leksik jihatdan tahlil qilish.
- 2) Pushtu tiliga o‘zlashgan va pushtu tilining ichki imkoniyatlari asosida shakllangan grammatik terminlarni yig‘ish, hajmini (taxminiy) aniqlash;
- 3) Ularni grammatik terminlar guruhlariga ajratish;

Tadqiqot manbalari. Shuni aytib o‘tish joizki, ushbu bitiruv malakaviy ishida yuqorida aytib o‘tganimiz Peshovardagi “Pashto Akademiyasi”da bosilib chiqarilgan hozirda Peshovarda pushtunlarga o‘qitiladigan asosiy grammatika kitoblardan biri bo‘lgan Xiyol Buhoriyning “د پښتو صرف و نحو” kitobidan foydalanildi. (Grammatik termin, izoh, qoida va misollar shu kitobdan olindi. Shuning uchun iqtibos berilmadi. Lekin boshqa adabiyotlardan foydalanilgan hollarda iqtibos berilgan.)

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxatidan

iborat. Har bir bob o'z mohiyatidan kelib chiqqan holda ichki qismlarga bo'lingan.

Terminning ma'nosini anglab yetish uchun uni so'z bilan solishtiriladi. Termin grekcha terminus so'zidan olingan bo'lib, o'z mohiyatidan chek, chegara degan ma'noni bildiradi, ya'ni termin chekli, chegaralangan, aniqrog'i – bir ma'noli so'zdir.¹³ Vaholanki, odatda so'zlar ko'pincha ko'p ma'noli bo'ladi. So'zlarning ko'p ma'noli bo'lishi tabiiydir. Ma'lumki, har qanday so'z paydo bo'lishida bir ma'noli bo'ladi, lekin kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida u ko'p ma'noli so'zga aylanib boradi. Lekin, termin ma'no jihatdan aniq bo'lishi, ya'ni, tushunchaning mohiyatini yoki eng asosiy belgilarini aniq ifodalashi kerak. Termin oddiy so'zlardan farq qiladi. A.A.Reformatskiyning fikricha, termin ko'p ma'nolikdan, polisemiya dan ajralib turishi kerak.¹⁴ Termin bir va aniq ma'noni bildiradigan maxsus so'zdir. Bu fanda, texnikada, siyosatda va diplomatiyada judayam zarur. So'z esa yuqoridagi xususiyatlardan holidir. So'z - bu tilning birligidir. Til esa aloqa quroli. Tilda aniq predmetlar, tushunchalar, emotsiya, tuyg'ular va boshqa narsalar so'z orqali belgilanadi. So'zni tushunish qanchalik qiyin bo'lmasin, har doim butun til mexanizmlarining markaziy birligidir.

Bundan shu xulosaga kelish mumkinki, so'zning qamrovi va ko'lamini terminga qaraganda bir necha bor kattaroq. Chunki odatda so'zlar o'z asl ma'nolaridan tashqari ko'chma va obrazli ma'nolarda ham ishlatiladi.

Termin esa yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarga ega emas. Termin bilan odatdagi so'zlar orasidagi farqlar aniqlanar ekan, bu bilan o'ziga xos xususiyatlari ham ochiladi. Termin tuzilishi jihatdan ixcham, qisqa va qulay bo'lishi kerak.¹⁵

Termini so'zdan ajratib turadigan umumiy belgilaridan biri, bu uning o'zi aniqlayotgan tushunchasi bilan bir ma'noda bevosita moslashishidir (oddiy so'z

¹³ Ақобиров С.Ф. Тил ва терминология. – Тошкент, 1968. – Б.5.

¹⁴ Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка. Проблемы структурной лингвистики. -М., 1968. -С.32.

¹⁵ Хожиев А., Решетова Л. Узбек тили грамматик терминларининг кискача изоҳли лугати. - Тошкент, 1980. – Б.5.

esa aniqlayotgan tushuncha bilan keng ma'noda moslashadi).

Terminologiya tor ma'noda ma'lum bir sohaga oid maxsus leksikadir. Keng ma'noda esa terminologiya umumiy lug'at tarkibining ayrim sohalarda ishlatiladigan qismidir. Termin ma'lum bir terminologik sistemaning a'zosidir va shu terminologik sistemada birgina ma'noga ega bo'lishi mumkin. Demak termin ma'lum bir sohada (yoki ma'lum bir terminologik sistemada) aniq bir ma'noga ega bo'lgan so'zdir.

Terminlarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo'lib, ma'lum fanning taraqqiyotiga bog'liq. Bu taraqqiyot to'xtovsiz bo'lgani uchun yangi terminlarning kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzluksiz bo'ladi.

Demak, terminologiyaning tartibga solinishi nafaqat ijtimoiy hayotda, balki ilmiy sohada ham ahamiyati katta bo'lgan masaladir.

I bob. Grammatik terminlarning leksik tahlili

Har qanday termin bir terminologik sistemaga mansub bo'lishi bilan birga so'z sifatida tilning boyligi hamdir. Terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi va boyidi. O'z navbatida u umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi.¹⁶

To'g'ri, hech qanday til faqat o'z termin elementlari hisobiga terminologiyasini qura olmaydi. Til qurilishi jarayoni shuni ko'rsatadiki, dunyoda sof tilning o'zi umuman mavjud emas. Har doim boshqa tillardan termin o'zlashtirish jarayoni sodir bo'lib turadi, bu jarayondan chekinish mumkin emas.

Shu bois, V.P.Danilenko ta'kidlaganidek, har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko'rsatkichi shu soha terminologiyasining "qat'iy ilmiy terminologiya"ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi.

Tilda qaysi tildan o'zlashgan terminlar ko'p bo'lsa, demak o'sha til egalarining ta'siri kuchli hisoblanadi. Bu holat, asrlar davomida har xil siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy yo'llar orqali ixtiyoriy yoki majburiy bo'lishi mumkin. Quyida shu bilan bog'liq masalalarni ko'rib o'tamiz hamda chetdan o'zlashgan, sof pushtucha va gibril terminlarni guruhlariga bo'lamiz.

1.1. Sof pushtu tilidagi grammatik terminlar

Ma'lumki, XX asr 1-yarmigacha Afg'oniston hududida davlat tili forsi-tojik tili bo'lgan. 1936 –yilda Afg'oniston hududida yangi konstitutsiya qabul qilindi va pushtu tili ham davlat tili deb e'lon qilindi. Pushtu tilini rivojlantirish bo'yicha ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy sohalarda ko'pgina ishlar olib borildi. Pushtu tilini rivojlantirish uchun qator bo'limlarni o'z ichiga olgan "Pashto tolana" ("Pashto jamiyati") tashkiloti tuzildi. Sof pushtu so'zlarini xalqning ongiga singdirish maqsadida ko'pgina amaliy tadbirlar amalga oshirildi. Bunga sof pushtu tilidagi badiiy kitoblarning yaratilishi, davlat

¹⁶ Ақобиров С.Ф. Тил ва терминология. – Тошкент, 1968.

idoralarining xodimlariga pushtu tilini o'rgatish va agar ular pushtu tilini bilsa, qo'shimcha maosh berish, ta'lim muassasalariga pushtu tilining kiritilishini misol qilib olishimiz mumkin. Lekin bu ishlar ham bir necha yillar ichida siyosiy jarayonlar tufayli sustlashdi. Bu ishlarning ijtimoiy hayotda ijobiy taraflari bo'ldi. Lekin ilmiy sohada, aynan grammatik terminlar borasidagi ishlarni qoniqarli deb bo'lmaydi. Chunki grammatika kitoblaridan sof pushtucha, ichki imkoniyatlar asosida shakllangan terminlarning juda kam sonli ekanligini bilib olishimiz mumkin. Ular quyidagilar:

alifbo	تورئ
sof arabiy harflar	تازې توري
illatli harflar	ناجور تيا توري
sokin belgisi	غورندى
oldin keluvchi harflar	وراندینی توري
keyin keluvchi harflar	ورپسې لگیدلی توري
jarangli undosh	ېر غيز
jarangsiz undoshlar	بې غېره
serebrallar	غېرگژبى
bo'g'in	توركى
nuqtali harflar	تېكوواله توري
zvarakay	زوركى
birlik	يواخ

ko'plik	ګڼې
bog'langan olmosh	ښېنې
sintaksis	ویل پوهنه
fonetika	غږ پوهنه

Ularning grammatik qo'llanmalarda ishlatilishiga misollar: ^{لیک ښود} orfografiya.

تازې تاری خاص د عربی په ټکو کې استعمالیږی نو د خالصې پښتو ټکو کې نه راځي.

Toza harflar xos arabiy so'zlarda ishlatiladi, ammo pushtu tiliga xos so'zlarda kelmaydi.

زورکی د پښتو مخصوصه حرکه ده چې د پیش او زور په مینځ مینځ کې حرکه لري. ددې علامه یو وروکی شان همزه (ء) دی چې د تاری د پاسه ورکولی شي.

Zvarakay pushtu tilidagi maxsus harakat bo'lib, pesh va zuvarning o'rtasida talaffuz qilinadi. Buning alomati kichkina hamza hisoblanib, harfning ustiga qo'yiladi.

1.2. Arab va fors tillaridan o'zlashgan grammatik terminlar

Pushtu tilida arab tilidan o'zlashmalar nafaqat grammatik terminlar orasida, balki barcha o'zlashmalardan eng ko'p miqdordagisini tashkil qiladi. Din, falsafa, mantiq, ilm va ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi tushunchalar arabiy o'zlashmalar bilan ifodalanadi. Islom paydo bo'lganidan keyin arab tili barcha sharq mamlakatlarida tarqaldi. Arab tilidan o'zlashmalar arablar Sosoniylar Eroniga g'olib kelganidan so'ng eroniy tillar, shu jumladan pushtu tiliga kirib kela boshladi.

B.Z.Xalidovning hisob kitobiga ko'ra, IX-XIV asrlardagi aksar afg'on shoirlarining bizgacha yetib kelgan namunalarida arabiy o'zlashmalar kichik miqdorda edi: 0 % dan 7 % gacha umumiy leksik qatlamni tashkil qilar edi. Faqat bir nechta o'qimishli shoir va yozuvchilarning asarlarida arabiy

o‘zlashmalar 10 % dan 17 % gacha leksik birliklarni tashkil qilar edi.¹⁷

Pushtu tiliga arabiy o‘zlashmalarning kirib kelishi XIV asrda kuchaydi va XIX asrning oxirigacha davom etdi.

Ba’zi bir mualliflarning asarlarida arabiy o‘zlashmalar 20-30% gacha ba’zida 50% gacha ko‘payadi.¹⁸

Ammo pushtu tili grammatikasidagi terminlarda arab tilidan o‘zlashgan terminlarni bundan ham yuqori ko‘rsatkichda ko‘rishimiz mumkin. Buning sababi shuki, hali o‘z ona tilining grammatikasi tizimga solinmagan pushtunlar arab tili grammatikasidagi terminlarni shundayligicha qabul qilishga majbur bo‘ldilar. Arab tili grammatikasi terminlari shunchalik mustahkam joy olganki, yuqorida aytib o‘tganimizdek, pashtulashtirish siyosati ham bunga ta’sir qila olmagan. Natijada hozirgi kunda ham pushtu tili grammatik terminlarini, asosan, arab tilidan o‘zlashgan terminlar tashkil qiladi. Arab tilidan o‘zlashgan terminlardan ba’zi misollarni ko‘rishimiz mumkin:

sukun	ساكن
tanvin	تنوين
urg‘u	خرج
muzakkar jins ismlar	مذكر اسمونه
muannas jins ismlar	مؤنث اسمونه
birlik	واحد
ko‘plik	جمع
olmosh	اسم ضمير
hozirgi zamon sifatdoshi	اسم فاعل
o‘tgan zamon sifatdoshi	اسم مفعول

¹⁷ Халидов Б.З. Лексическая характеристика арабских заимствований в афганском языке. - Ташкент, 1964.

¹⁸ Mannonov A.M. Quronbekov A. Pushtu tili leksikologiyasi, Toshkent, 2012, - B.121.

Arab tilida o‘zlashgan grammatik terminlarning qo‘llanishiga misollar:

معدوله واو – هغه واو دی چې په لیک کې راځي، خو په وینا کې نه راځي.

Ma’dula vov shunday vovki, yozuvda keladi, ammo talaffuzda aytilmaydi.

منفصل – هغه ضمیرونه چې د جملې په سر کې راځي او بل کلمې سره تړلی نه وی.

Munfassal – shunday olmoshlarki, jumla boshida kelib, boshqa so‘zlar bilan bog‘lanmaydi.

د معنو په لحاظ سره د مصدر دوه قسمونه دی: لازم او متعدی.

Ma’nosiga ko‘ra masdar (infinitiv) ikkiga bo‘linadi: oddiy va to‘ldiruvchi talab qiladigan.

Bir mamlakatda turli tillarning qo‘llanishi tillarning bir biriga ta’sirini kuchaytiradi. Pushtu tilida fors tilidan o‘zlashgan terminlar juda ko‘p. Afg‘onistondagi fors-tojik (dariy) va pushtu tilini davlat tillari ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, ikki tilning bir biriga ta’siri yanada kuchli bo‘lishi turgan gap. Pushtu tilida turli sohalarga oid fors tilidan o‘zlashgan terminlarni ko‘pligining yana bir sababi Afg‘onistonning Eron bilan chegaradoshligidir. Shunday bo‘lsada grammatik terminlar orasida fors tilidan o‘zlashgan terminlarni uchratish qiyin. Buning sababi shuki, fors tilidagi grammatik terminlarda ham arab tilidan o‘zlashgan terminlar yetarlicha topiladi. Malakaviy ishiga material yig‘ish davomida faqatgina زور (zuvar), زېر (zer), پېش (pesh) kabi terminlarni hamda qo‘shma terminlar orasidagi نار اسم (nar ism) va نزدی (nazdi ishāre) grammati terminlari kuzatildi. Qo‘shma terminlarning “nar” va “nazdi” qismlari fors tilidan o‘zlashgan.

Bu terminlarni quyidagi misollarda ko‘rishimiz mumkin:

د زور حرکه د توری د پاسه ورکړی کیږی.

Zuvar harakati harfning ustki qismiga qo‘yiladi.

د زیر حرکه د پښتو په خپلو ټکو کېنې ډیره کمه لیدلې شی.

Zer harakati pushtu tili so‘zlarida juda kam ko‘rinadi (uchraydi).

1.3. Ingliz tilidan o‘zlashgan grammatik terminlar

Pushtu tilidagi G‘arbiy Yevropa va rus tillaridan o‘zlashmalar orasida kattagina miqdordagi internatsional so‘zlar uchraydi. Internatsional o‘zlashmalardan tashqari pushtu tiliga ilm-fan, madaniyat va sport, ijtimoiy-siyosiy leksika, tibbiyot va boshqa sohalarga oid katta miqdordagi G‘arbiy Yevropa so‘zlari o‘zlashgan va o‘zlashmoqda. O‘zlashmalarning asosiy manbasi ingliz tili bo‘lib, boshqa tillardan kamroq uchraydi.¹⁹

Ma’lumki, XIX asrning ilk davrlaridan boshlab inglizlar Afg‘onistonga ko‘z tika boshladi. Natijada uch marotaba ingliz-afg‘on urushi bo‘lib o‘tdi. Haligacha inglizlar Afg‘onistonning ichki ishlariga aralashishga va uning bozorini egallashga harakat qiladi. Bunday vaziyatda terminlarning o‘zlashishi ham tabiiy holdir. Pushtu tili grammatikasida ham ingliz tilidan o‘zlashgan bir qator terminlarni ko‘rish mumkin:

morfologiya	مورفولوجي
fonetika	فونیتیک
urg‘u	اکسنت
diftong	دفتانگ
ot	نون
fe’l	ورب
unli tovush	واول

Mazkur bo‘limga istisno tarzda shuni qayd etishimiz zarurki, Pokistonda, Hindistonda, Amerikada va ko‘pgina Yevropa davlatlarida pushtushunos olimlar

¹⁹ Mannonov A.M., Quronbekov A. Pushtu tili leksikologiyasi.-Toshkent,2012.

tomonidan chop etilayotgan pushtu tiliga oid kitoblarning aksariyatida grammatik terminlarning inglizcha ekvivalenti ishlatilmoqda. Masalan اسم [ism] “ot” termini o‘rniga نون [naūn] “noun”, فعل [fel] “fe’l” termini o‘rniga ورب [verb] “verb” grammatik terminlaridan keng ravishda foydalanilmoqda.

Inglizcha terminlarning ishlatilishiga misollardan namuna:

د دغو دریو ټولگیو لپاره باید د گرامار د مورفولوجي برخه د نویو موادو او نویو تیوریو او میتودونو سره په رڼا کی ولکیل شي.²⁰

Ushbu uchala kurs uchun grammatikaning morfologiya bo‘limi yangi modda, yangi teoriya va metodlar bilan oydinlashtirilib yozilishi kerak.

پدې لاندې جمله کی ورب پیدا کی.²¹

Quyidagi gapdan fe’lni toping.

1.4. Gibrid grammatik terminlar

Pushtu tili grammatik terminologiyasining boyishida gibrid terminlarning alohida o‘rni bor. Gibrid terminlar deganda, so‘z yoki so‘z birikmasining yarmi xorijiy so‘z, qolgan yarmi esa shu tilning an’anaviy terminidan tashkil topgan so‘z birikmasi tushuniladi. Pushtu tili grammatik terminologiyasida ham bunday terminlar mavjud:

illatli harflar	د علَّت توري
abjad harflar	د ابجدو توري
qamari harflar	قمرې توري
shamsi harflar	شمسې توري
nuqtasiz harflar	مصل توري
nuqtali harflar	منقوطة توري

²⁰ عبدالعلي رسول زاده په مالمو کي د پښتو ژبي بنوونکي، سويډن، ۲۰۱۰، ۲، ۳۰.

²¹ Shu kitob. – B.25.

ujda majhula (yo) (e)	اورده مجهوله ی
muannas jins ismlari	بئنه اسمونه
uzoq ko'rsatish olmoshlari	دلری اشاری
morfologiya	مورفیم پوهنه

Gibrid terminlarning grammatik qo'llanmalarda ishlatilishiga misollarga e'tibor qiling:

دا ابجدو توري په شميره اته ويشت وی، هر يو توری يو خاص قيمت لری.

Abjad harflar sanoqda 8 ga bo'linadi. Har bir harf o'ziga xos qiymatga ega.

د علت توري معنى «ناجورتيا» توري دي

Illatli harflarning ma'nosi "noqis" harflardir.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga kelishga imkon beradi:

Ushbu BMI da o'rganilgan barcha terminlar soni, dubletlarni ham hisobga olganda 200ga yaqinni tashkil etdi. Bularni klassifikatsiya qilish quyidagi natijalarni berdi:

Sof pushtucha grammatik terminlar soni 17 ta, ya'ni 8.9 % ni tashkil qildi.

Fors tilidan o'zlashgan grammatik terminlar soni 3 ta, ya'ni 1.5% ni, qo'shma terminlar tarkibidagi forsiy grammatik o'zlashma terminlarni ham hisobga olsak, 5 ta, 2.6 % ni tashkil qildi. Shuni takidlab o'tish joizki, fors tilidan o'zlashgan ana shu 3 ta termin hisoblangan zuvar, zir, pesh terminlari, ularning dubleti bo'lgan va arab tilidan o'zlashgan fatha, kasra, zamma terminlariga qaraganda keng foydalaniladi.

Ingliz tilidan o'zlashgan grammatik terminlar soni 7 ta ya'ni 3.6% ni tashkil qildi.

Gibrid grammatik terminlar soni 10 ta ya'ni 5.2 % ni tani tashkil qildi.

Arab tilidan o'zlashgan grammatik terminlar soni 151 tani ya'ni 79.5% ni tashkil qildi. Agar gibrid terminlar tarkibidagi arabiy terminlarni ham qo'shsak,

84.2% ni ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turibdiki, arab tilidan o'zlashgan grammatik terminlar pushtu tili grammatikasida yetakchi o'rinni egallaydi.

II bob. Pushtu tilida grammatik terminlar va ularning struktur tahlili

2.1. Fonetika va orfografiyaga oid terminlar

تورئ يا الفبا (torəy yo alifbā) - Pushtu tili alifbosida qirqta harf mavjud boʻlib, arab alifbosiga asoslangan.

حرکات (harakāt) - Bu termin oʻzbek tilida harakatlar degan maʼnoni anglatadi. Harakatlar talaffuzda harf va tovushlarni bir-biriga bogʻlash uchun xizmat qiladigan oʻziga xos ishoralardir.

زور (فتحه) (zuwar (fatha)) - Harfning ustki qismiga qoʻyiladigan va shu harfdan keyin kelib, unli *a* tovushini anglatadigan harakatdir.

زېر (کسره) (zer (kasra)) - Harfning ostki qismiga qoʻyiladigan va shu harfdan keyin kelib, unli *i* tovushini anglatadigan harakatdir.

پېش (ضمه) (pesh (zamma)) - Harfning ustki qismiga qoʻyiladigan va shu harfdan keyin kelib, unli *u* tovushini anglatadigan harakatdir.

زورکی (ه ؛ ء) (zwarakay) - Bu harakat pushtu tilining oʻziga xos tovushi boʻlib zuvar va pesh oʻrtasida talaffuz qilinadi.

ساکن (sākin) - Sākin arab tilidan kirib kelgan oʻziga xos terminlardan biri boʻlib, bu harakatsiz harf hisoblanadi. Masalan: **أس** soʻzida (s) **س** harfi sakindir.

غورندى (gʻurnday (gʻrunday)) - Pushtu tilida sokin harfini tepasiga qoʻyiladigan belgi (°) gʻrunday deyiladi.

موقوف (mavquf) - Sakin harfidan keyin kelgan harfga mavquf deyiladi. Bu harf ham harakatsiz boʻladi. Misol uchun, **مور** (mawr) soʻzida **ر** (r) harfi mavquf. Chunki bundan oldingi **و** (w) harfi sokindir.

تحريك (tahrik) - Tahrik harakatlangan degan maʼnoni anglatadi. Baʼzi sākinli harflarning harakatlanishiga aytiladi. Masalan, **شَفَق** (shafqu)ning oʻrniga **شَفَق** (shafaq) deyiladi.

تسکين (taskin) - Taskin sukunlangan (toʻxtalgan) degan maʼnoni bildiradi. Baʼzi harakatli harflarning sākinga yaʼni harakatsizlikka aylanib ketishi. Masalan, **حَيَوَان** (hayavān) soʻzi **حَيَوَان** (hayvān) boʻlib oʻzgarib ketishi.

مآقبل او مآبد = وړاندینی او ورپسې لگیدلی (māqabl aw māba'd = wrondinay aw wərpase lagedəlay) - Ushbu terminlar “oldin va keyin keluvchi” harflar degan ma’noni anglatadi. Biror soʻzda oʻziga xos harfdan oldin kelgan harf وړاندینی harf boʻladi. Agar oʻziga xos harfdan keyin kelgan harf ورپسې لگیدلی harf hisoblanadi. Masalan, soʻzida ى ning māqabl harfi ا (alif) dir, māba'd harfi esa ت dir.

ممدوده الف (mamduda alif) - Ushbu termin choʻziq alif degan ma’noni bildiradi. Agar alifning tepasida madda (ا) belgisi boʻlsa, alif choʻziqroq talaffuz qilinadi. Masalan, آرام, آسمان, (āram, āsmān) soʻzlaridagi alif choʻziq oʻqiladi.

مقصوره الف (maqsura alif) - Ushbu termin qisqa alif degan ma’noni bildiradi. Bunda alif qisqa talaffuz qilinadi. Masalan, اصل, ادل (asl, adl) soʻzlarida alif qisqa talaffuz qilinadi.

منقوطة يا تڪوواله توري (manquta yo ṭəkowāla tori) - Bu terminning ma’nosi nuqtali harflardir. Bunda pushtu tilidagi nuqtali harflar koʻzda tutiladi. Masalan ب - ج - ش - پ kabi.

غير منقوطة يا مصل توري (gʻayri manquta yo musammal tori) - Bu terminning ma’nosi nuqtasiz harflardir. Bunda pushtu tilidagi nuqtasiz harflar koʻzda tutiladi. Masalan ا - ح - ص - ل kabi.

شمسي او قمري توري (shamsi va qamari harflar) - Shamsiy va qamariy harflar ال (al) artikli bilan bogʻliq. Agar al artikli bilan kelgan birikmalarni talaffuz qilishda al artikli oʻqilmasa bu shamsi harflar, agar al artikli oʻqilsa bu qamari harflar hisoblanadi

د ابجدو توري (də abjado tori) - Abjad harflari arab tilining 28 ta harfini bildiradi va bu harflar ma’lum sonlarni ifodalab keladi. Masalan, ب - 1, alif - 1, ق - 100, qof - 100, خ - 600, xe - 600 kabi.

د علَّت توري (də iʻllat tori) - Bu terminning tarjimasi illatli harflar boʻlib, bunga (و - ا - ى - ه - ء) wow, alif, yoy, hoyi-havas va hamza kiradi. Ya’ni soʻzlarga ba’zi qoʻshimchalar qoʻshilganda, talaffuzda ushbu harflar tushib qoladi.

Pushtunlar عَلت so‘zining o‘rniga o‘zlarining نَاجورْتِيا (nājurtyā) terminidan ham foydalanadi.

د عربى يا تازى توري (dā a‘rabəy yo tāze tori) - Buning ma‘nosi sof arabiy harflardir. Bu so‘zlar arab tilining xos so‘zlarida ishlatiladi, pushtu tilining sof so‘larida ishlatilmaydi. Bular quyidagilar: ث، ح، ذ، ص، ض، ظ، ع، ف، ق

نون غنه (nung‘əna) - Ushbu nun burunda aytiladigan nun hisoblanadi.

تاتشى يا منقله ئ (musqala yoki tānisəy yo) - Bu yoyning tepasida hamza bo‘ladi va qattiqroq talaffuz qilinadi. Shuning uchun (منقله) musqala-qattiq deyiladi. Shu bilan birga bu muannas bo‘lgani uchun (تاتشى) tānisəy - muannas yoy ham deyiladi. Ushbu yoy diftong ham hisoblanadi va o‘zbek tilida əy tarzida talaffuz qilinadi. Masalan, كرسى، لكى (kursəy, lakəy).

غندى يا معروفه ى (g‘undəy yoki ma‘rufi yo) – bu atama aniq degan ma‘noni bildiradi. Ushbu yoy o‘zbek tilida i harfiga to‘g‘ri keladi. Masalan, باتى، وير (bāti, wir)

اوپرده مجهوله ى (ugda majhula yo) - Bu yoy o‘zbek tilidagi e harfiga to‘g‘ri keladi. “Ugda”ning o‘zi uzun ma‘nosini beradi va cho‘ziqroq talaffuz etiladi. Masalan, تير، كير (ger, ter). Zamonaviy pushtu tilida yoyning nuqtalari pasga qarab qo‘yiladi. Masalan: كوي

ملينه يا پسته ى (mulayyana yoki pasta yo) - Mulayyana o‘zbek tilida “difftongli yo” degani bo‘lib, cho‘ziq talaffuz qilinmaydi va o‘zbek tiliga “ay” tarzida talaffuz qilinadi. سى، سى (saray, spay).

معروف واو (ma‘ruf wow) - Bu harf pushtu tilida aniq va tabiiy wow bo‘lib, pesh harakati vazifasini bajara oladi. Bu o‘zbek tilidagi u harfiga to‘g‘ri keladi. Masalan: خوره، چاقو، ميلو (milu, chāqu, xura)

مجهول واو (majhul wow) - Pushtu tilida bu harf majhul, g‘ayri tabiiy hosoblanib, aniq u tovushini bermaydi, buning tovushi o‘zbek tilidagi o‘ tovushiga to‘g‘ri keladi. Masalan: زانگو، پىكو (zāngo‘, piko‘)

معدوله واو (ma‘dula wow) - Bunda wow yozuvda yozilsa ham talaffuzda o‘qilmaydi. Masalan: خواب، خوش (xesh, xāb).

ملفوظه ه (malfuza he) – malfuza he eng yumshoq *h* tarzida o‘qiladi va ishlatiladi. Masalan: شاه، کوه (shāh, kuh)

مختفی ه (muxtafi he) - Pushtu tilida bu hoyi havvas *h* harfi hisoblanmaydi va so‘z oxirida kelib, *a* tovushini ifodalaydi. Masalan: جاله، سيلمه (jāla, selma)

اشباع (ishbā’) - Bunda zuwardan alif, zirdan yoy, peshdan wow yasalib cho‘zib talaffuz etilishi ishbā’ hisoblanadi. Masalan, لیری dan لیری hosil bo‘ladi.

مشدد (mushaddad) - Mushaddad tashdidlangan (ikkilangan) degan ma’noni anglatadi. Bu termindan bir so‘zda yozuvdagi bir harf ikkilanib kelishi, ya’ni bitta so‘zni ikki marta talaffuz qilinishi tushuniladi. Masalan مشدد so‘zida *د* harfi ikkilantiriladi. So‘zda mushaddadning o‘qilishiga tashdid deyiladi tashdidning belgisi ّ dir.

ادغام (idg‘om) - Bu hodisa qator kelgan tovushlarning keyingisi oldingisiga ta’sir qilishini bildiradi. Bu o‘zbek tilidagi regressiv assimilyatsiyaga to‘g‘ri keladi. Masalan بدتر badtar بتتر battar deb talaffuz qilinadi.

تتوین (tanvin) - Bu harakat arab tilidan kirib kelgan so‘zlarda ishlatiladi va so‘z oxiridagi bazi harflar ikkita zuwar, ikkita zir yoki ikkita pesh bo‘lib, shu bilan birga ن (nun) ham kelsa, bu tanvin bo‘ladi. Masalan, قصداً، صمٌ، بكمٌ، نسلِ.

اماله (imāla) - Pushtu tilida imāla alifning yoyga o‘zgarib, qisqa talffuz qilinishidir. Bu o‘zgarish asosan she’rlarda qofiya zarurati uchun ishlatiladi. Masalan: آواز (āwāz) so‘zi اوېز (awiz) shaklida ishlatiladi.

حذف (hazf) - Hazf qisqarish degan ma’noni bildiradi. Bu termindan biror so‘zda harflarning qisqarib talaffuz etilishi tushuniladi. Masalan: شاه – شه (shāh-sha), باچئی-باچائی (bāchāhey - bāchahey). Bu misollarda hoyi hawas va alif mahzuf (qisqargan) bo‘lyapti.

ترخیم (tarxim) - Agar hazf biror so‘zning oxirida sodir bo‘lsa, ya’ni so‘zni oxirida qisqarish bo‘lsa, bunga tarxim deyiladi. Tarximdan keyin so‘z qolmaydi. Masalan: بادشا - بادشاه – bu yerda bādshāh so‘zi bādshā tarzida talaffuz etilyapti.

تخفیف (taxfif) - Bu termin yengillashtirish degan ma'noni bildiradi. Masalan: نظاره (nazāra) tarzida talaffuz etadi.. نظاره (nazzāra) so'zini pashtunlar yengillashtirib

زیادت (zyādat) - Pushtu tilida tovush orttirilishiga zyādat deyiladi. Termin arab tilidan o'zlashgan. Masalan: کلمه - واره (wara - wāra), (kalima - kalīma). Bu yerda alif va yo orttirilgan.

قلب (qalb) - Bu hodisada undosh tovushlarning o'rin almashinuvi (metateza) sodir bo'ladi. Masalan: پښیمانه - پښیمانه so'zlarida پ va ب tovushlari almashgan.

ابدال (abdāl) - Bu termin o'zgartirish degan ma'noni bildiradi. Bir tovushning o'zgartirib talaffuz etilishiga abdāl deyiladi. Masalan: فکر - پکر (fikr - pikr)

واول (wāwal) - Bu termin pushtu tilida unli tovushlarni bildiradi.

کانسوننت (kānsonant) - Ushbu termin undosh tovushlarni bildiradi.

ېرغیز (gag'iz) - Bu termin pushtu tilidagi jarangli undosh tovushlarni bildiradi.

بی غره (beg'ağa) - Bu termin pushtu tilidagi jarangsiz tovushlarni bildiradi.

غبرگژی (g'barǵjəbay) - Pushtu tilida undoshlarning o'ziga xos bo'lgan serebral tovushlari mavjud. Bu pushtu tilida g'barǵjbay deb ataladi va ular quyidagilar: ن - ې، ت - ټ، د - ډ، ر - ړ، ش - ښ، گ - ګ

دفتانگ (diftāng) - Bu termin pushtu tiliga ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, ikki unlining bir bo'g'inda ketma- ket, qator kelishiga diftong deyiladi. Pushtu tilida diftonglar soni 5 ta va ular quyidagilar: وى (ay), ى (āy), ى (əy), ى (au), ى (uy).

تورکی (torəkay) - O'pkadan chiqayotgan havo to'lqiniga bir zarb berish bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar yig'indisiga تورکی (torəkay), ya'ni bo'g'in deyiladi.

خج یا اکسنت (aksent yo xaj) - So'z bo'g'inlaridagi unli tovushlardan birining yoki gap tarkibidagi ayrim so'zning boshqalariga nisbatan kuchliroq ovoz bilan

aytilishi pushtu tilida اکسنت (aksent) yoki خج (xaj), ya'ni o'zbek tilida urg'u deyiladi.

Fonetika va orfografiyaga oid bayon qilingan grammatik terminlarni deyarli boshqa tillardan o'zlashganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, shunga guvoh bo'lish mumkinki, terminlarning aksariyatini dubletlar tashkil qiladi. Bu dubletlarning ichida terminlardan foydalanishda arab tilidan o'zlashgan terminlar yetakchi o'rinni egallashi aniqlandi. Buning isboti sifatida Xiyol Buxoriyning "Pushtu tili grammatikasi" kitobidan misollar keltiramiz:

ساکین هغه توري ته وايي چې هيڅ حرکت نه لري. خو ددې توري نه وړاندې توري متحرک وي.

Sokin shunday harflarga aytiladiki, hech qanday harakat bo'lmaydi. Ammo bu harflardan oldingi harflar harakatlangan bo'ladi.

اوردې مجهوله «ې» هغه «ې» ده چې وړاندې تري نه غيرخالص زیر وي.

Ugda majhula yo shunday yoyki, bundan oldingi (harflar) lardan g'ayrioddiy zer hisoblanadi.

2.2. Morfologiyaga oid terminlar

اسم – ism so'z turkumlarining deyarli hammasi egalik, kelishik va ko'plik shakllari bilan o'zgaradi. Shuning uchun bu shakllar faqat otlargagina emas, balki sifat, son, olmoshlarga, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh va taqlid so'zlarga ham daxldordir. Egalik va kelishik shakllari ana shu so'zlarni boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lab keladi. Demak, egalik, kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar ismlar atamasi ostida birlashadi.

مذكر يا نر اسمونه (muzakkar yo nar ismuna) – Bu terminlar muzakkar jinsga oid so'zlarni bildiradi. Masalan, هلك، سوي، زړه، کاکا (halək, soy, zṛə, kākā)

muannas yo shəža ismuna) - Bu terminlar muannas jinsga oid soʻzlarni bildiradi. Masalan: مور، غوا، هيلي، غير، غور (rafīqa, gʻəwā, hiləy, gʻeg, mur).

(də jāmad ism) - Jāmad termini tub, asl degan maʼnoni anglatadi, yaʼni tub maʼnoli soʻzlar tushuniladi. Masalan: پل، زړه، مور، پل (zrə, mur, pul).

(də mushtaq ism) - Pushtu tilida bu termin yasama soʻzlarni koʻzda tutadi. Yaʼni masdardan yasalgan soʻzlarga mushtaq soʻzlar deyiladi. Masalan: لیکونکی - لیک - لیکنه، کر - کرونده. Bular لیکل va کرل masdarlaridan yasalgan.

(wāhid yo yawāz) - Ikkalasi ham birlik degan maʼnoni anglatadi va birlik sondagi otlar bir predmetni bildiradi. Masalan: شپون، میلمه، زمری (shpun-choʻpon, melma-mehmon, korba-uy egasi, zmaray-oʻspirip)

(jamaʼ yo gunar) - Bu terminlar koʻplik degan maʼnoni anglatadi va koʻplik sondagi otlar birdan ortiq predmetni bildiradi. Masalan: پاهان، ساري، پښتانه (sari - odamlar, paštānə - pashtunlar, pohān - olimlar, gʻāshuna - tishlar)

(də maʼrufi ism) - Bu terminning maʼnosi oʻzbek tilida atoqli otga toʻgʻri keladi. Ayrim shaxs yoki predmet yoki joy nomiga atab qoʻyilgan otlar maʼrufi ism yaʼni atoqli otlar deb ataladi.

(də aʼlam ism) - Pushtu tilida bu termin yana اسم خاص (ismi xās) deb ham nomlanadi. Bu termin biror mashhur va atoqli joy, kishi yoki predmetga aytiladi. Masalan: اباسين - احمدشاه - كوهات (Abāsin - Ahmadshāh - Kuhāt)

Inson ismi bilan bogʻliq oʻziga xos nomlarga ham aʼlam ism deyiladi. Bularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

(taxallus) - Biror shoir yoki yozuvchilar oʻziga tanlaydigan qisqaroq nomni taxallus deydi. Masalan: كاظمخان (kāzimxān) oʻziga شيدا (shaydā) deb taxallus qoʻygan.

ختاب (xitāb) – Ba’zi kishilarga uning hurmati uchun (ko‘pincha shohlar tomonidan) beriladigan nom pushtu tilida xitāb deyiladi. Masalan: شمس العلماء – shams ula’mā

لقب (laqab) – Biror mashhur kishining sifati, xususiyati va izzat-hurmati uchun beriladigan nom laqab deyiladi. Masalan, Shayx Abdulqodir Jiloniyni لوى (loy zavon), Muso alayxissalomni كلیم الله (kalimulloh) deyishadi.

عرف (u’rf) – Pushtu tilida biror kishining ko‘rinishiga qarab beradigan nomi u’rf deyiladi. Masalan: نرى – توری- سپینه (naray – ozg’in, to’ray – qoravoy, spina - oqvoy)

کنیت (kunya) – Bu biror kishini ota-onasining ismi bilan yoki ota-onani ularning biror farzandini nomi bilan chaqiradigan nomga kunyat deyiladi. Arablar biror kishini “Ibn Masu’d” (Masu’dning o’g’li), “Abulqosim” (Qosimning otasi) deb kunya beradi. Pushtunlarda ham shunga o’xshab د تورىولى پلار (Toryolayning otasi) yoki د زلمى زوى (Zalmayning o’g’li) kabi kunyat beradilar.

منفصل يا جدا (munfasil yo judā) – Munfasil va judā terminlarining ma’nosi alohida degan ma’noni anglatadi, alohida, yakka holdagi olmosh tushuniladi. Munfasil olmosh gapning boshida kelib, gapning boshqa so’zi bilan bog’lanmaydi. Masalan: ته پېښورته ځي - Sen Peshavorga kelyapsan

متصل يا نېښتى (muttasil yo nshətay) – Muttasil va nshətay terminlarining ma’nosi bog’langan degan ma’noni anglatadi, ya’ni bog’langan olmosh tushuniladi. Muttasil olmosh gapning o’rtasida keladi va so’z bilan bog’lanadi. Masalan: U kitobni olib keldi. - کتاب يې راوړ

Misol uchun: زه کتاب لولم - men kitob o’qiyapman

د ضمير اسم (də zamir ism) – Zamir termini pushtu tilida olmosh so’z turkumini bildiradi.

انکلیتیک ضمائر (enklitik zamāir) – Enklitik olmoshlarni o’zbek tilini o’rganishda kuchsiz egalik olmoshlari ham deyishadi. Bu olmoshlar gapning o’rtasida ko‘pincha otdan keyin ishlatiladi.

شخصی ضمائر (shaxsi zamāir) – Ushbu termin o‘zbek tiliga kishilik olmoshlari tarzida tarjima qilinadi.

غیرمستقیم ضمائر (g‘ayrmustaqim zamāir) – Bu termin o‘zbek tilida kishilik olmoshlarining vositali shaklini bildiradi va asosan o‘tgan zamonda egani ifodalashda foydalaniladi. Ular quyidagilar:

مفعولی ضمائر (mafu’li zamāir) – Bu terminning ma’nosi to‘ldiruvchili olmoshlardir.

اضافی ضمائر – izofi zamāir

Bu olmosh o‘zbek tilida egalik olmoshlariga to‘g‘ri keladi.

ستاسو کار تاکل شوی دی - Sizlarning ishingiz belgilangan.

د اشاری اسم (də ishāre ism) - Də ishāre ism pushtu tilida atoqli (ma’rufi) ismlarning uchinchi qismi bo‘lib, o‘zbek tilidagi ko‘rsatish olmoshlariga to‘g‘ri keladi. Ya’ni bular narsa buyumni, kimsani ko‘rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlardir.

د نزدی اشاری (də nazdi ishāre) - Bular yaqin ko‘rsatish olmoshlari bo‘lib, u, ular, bu, shu, mana bu, anavi kabi olmoshlarni o‘z ichiga oladi.

د لری اشاری (də liri ishāre) - Bular uzoq ko‘rsatish olmoshlari bo‘lib, u, ular, o‘sha, ana o‘sha, ana o‘shalar kabi olmoshlarni o‘z ichiga oladi.

د موصول اسم (də mavsul ism) - Pushtu tilidagi mavsul ism to‘pdan ajratilgan yoki jamlab ko‘rsatilgan shaxs, narsa, belgi, harakat – holatlarni ifodalaydi va o‘zbek tilidagi belgilash olmoshlarida to‘g‘ri keladi.

Masalan: هر څوک چې خاندی هغه به ژاری. - Kimki kulsa u yig‘laydi.

د نکری اسم (də nakare ism) - Pushtu tilida bir turdagi shaxs, narsa, o‘rin joy, faoliyat-jarayonning umumiy nomini bildirgan ismlar nakare ismlar deyiladi. Bu termin o‘zbek tilida shartli ravishda turdosh otlarga to‘g‘ri keladi.

د ذات اسم (də zāt ism) - Pushtu tilida biror narsa, hodisa, jarayon yoki shaxsni turlicha nomlanishiga ismi zāt deyiladi. Ismi zāt ham o‘z o‘rnida beshta turga bo‘linadi.

د تصغیر اسم (də tasg‘ir ism) - Pushtu tilida biror narsani asl holatiga qarshi yoki undan kichraytirib nomlashga tasg‘ir deyiladi. Bu o‘zbek tilidagi

kichraytirish – erkalash soʻzlariga toʻgʻri keladi. Soʻz baʼzi qoʻshimchlarni oladi. Masalan: كٲ (kat) - karovat - كٲكى (katkəy) - karavatcha, بلا (balā) – yalmogʻiz kampir – بلاگى (balāgəy) – kampircha.

د مکبر اسم (də mukabbir ism) - Mukabbir termini kattalashtirish, boʻrttirish degan maʼnolarni bildirib, pushtu tilida soʻzlarni boʻrttirish, kattalashtirish uchun koʻp hollarda soʻzni qoʻshimchalarini olib tashlab, tub soʻz qoldiriladi. Masalan: پگرئ (pagrəy) – salla – پک (pag) – katta salla (salla insonning bosh kiyimi. Asosan din peshvolari kiyadi, ammo Afgʻonistonda oddiy insonlarning koʻpchiligi ham kiyadi.)

د آلى اسم (də āli ism) - Pushtu tilida āli ism deb asbob-uskuna, qurol-yaroqqa va jihozlarga oid soʻzlar tushuniladi. Masalan: يوم - توپک - میخ - ستن - igna – mix – toʻpponcha – omoch

د ظرف اسم (də zarf ism) - Zarf oʻzbek tiliga ravish deb tarjima qilinadi. Pushtu tilida ismi zarf ham oʻz oʻrnida ikkiga boʻlinadi:

ظرف مکان (zarfi makān) – Zarfi makān soʻzlari biror joy yoki tarafni bildiradi va qayerga?, qayer?, qayerdan?, qayerda? Soʻroqlariga javob boʻladi. Masalan: بیرنه - هلته - دلته - وروستی - وړاندی - مینځ - باندی - لاندی - پورته - ښکته - ترشا - شاته - tepaga –pastga –yuqori – quyi – oʻrta –oldin – orqa – shu yer – u yer – orqa – orqadan – orqaga.

ظرف زمان (zarfi zamān) – Zarfi zamān soʻzlari biror vaqt va paytni bildirib, qachon? soʻrogʻiga javob boʻladi. Masalan: جمعہ - ماہنام - سپرلى - اختر - juma payti – kechqurun – bayramda – peshin – ertalab – kecha.

د صوت اسم (də savt ism) - Savt oʻzbek tilida ovoz degan maʼnoni bildirib, pushtu tilida bu termin taqlid soʻzlarni bildiradi. Masalan: ٲٲگ - کرس - ډپ - ٲس - tang – kars – dap – tas – dang – shar.

د کنایي اسم (də kināye ism) - Bu termin pushtu tili grammatikasining oʻziga xosliklaridan biri hisoblanadi. Baʼzan gapiruvchi biror kishini yoki narsani nomini bilmasa yoki esida yoʻq boʻlsa, u haqida gapirayorganda uning nomini baʼzi soʻzlar bilan ifodalash kinoya soʻzlari deyiladi. Oʻzbek tiliga ishora, shama

اعداد ذاتی (a'dādi zāti) - Bu termin o'zbek tilida asliy sonlar deb tarjima qilinadi va o'zbek tilidagi sanoq sonlarga to'g'ri keladi. Ya'ni bir turdagi narsa buyumlarning umumiy sonini, miqdorini bildiradi. Misol uchun: یو، دوه، درې، خلور،

1,2,3,4,5, 10,20, 100,1000. - پنځه، لس، شل، سل، زر،

اعداد ترتیبی (a'dādi tartibi) - Ushbu terminning tarjimasi tartib sonlar bo'lib, o'zbek tilidagi tartib sonlar bilan bir xil hisoblanadi. Ya'ni narsa buyumning sanoqdagi tartibini bildiradi. Masalan: پنځم کتاب - beshinchi kitob

اعدادی کسری (a'dādi kasri) - Pushtu tilidagi sonning ushbu turi kasr sonlar hisoblanadi. Masalan: درې څلورم - to'rtdan uch (5/2) - دوه پر پنځه - (4/3)

اسم مصدر (ismi masdar) - Pushtu tilida masdar ism deb, biror ishni qilinishi yoki qilinmasligiga aytiladi. Ammo zamon bilan bog'liq bo'lmaydi. Anig'roq qilib aytadigan bo'lsak, fe'lining infinitiv shakliga masdar deyiladi. Masalan: نیول، کتل، تلل - bormoq, qaramoq, tutmoq.

وضعی مصدرونه (vaz'i masdaruna) - Vaz'i masdaruna sodda yoki tub masdar so'zlari hisoblanadi. Masalan: لیدل، وژل، وهل، بلل، څښل، غوښتل، ریيل، خورل. - ko'rish, o'ldirish, urish, chaqirish, ichish, xohlash, o'rish, yeyish.

ترکیبی مصدرونه (tarkibi masdaruna) - Tarkibi masdaruna murakkab, yasama masdarlar hisoblanib, asosan ot va sifat so'z turkumlaridan کول [kawəl] va کیدل [kedəl] so'zlarining birikishi orqali hosil bo'ladi. Misol uchun:

اوزیدل - اورد - اوردول - اوردیل - uzun - uzaytirmoq - uzaymoq

جلی مصدرونه (ja'li masdaruna) - Ma'lumki, pushtu tilida ل [əl] qo'shimchasini qabul qila oladigan barcha so'zlar masdar bo'la oladi. Agar mana shu so'zlarga ی - kabi qo'shimchalarini qo'shish orqali obstrak ma'noli so'zlarni hosil qilinsa, bunday so'zlar ja'li masdar so'zlari deyiladi. Masalan: دویوراک - زړور - زړورتیا - dovyurak - dovyuraklik.

تام مصدر (tāmi masdar) - Agar fe'lining barcha ko'rinishlari bitta masdardan hosil bo'lsa, bunga tāmi masdar deyiladi. Masalan: کتل، وژل

ناقص مصدر (nāqisi masdar) – Agar fe’ning barcha ko‘rinishlari bitta masdardan hosil bo‘lmasa, ba’zi boshqa ko‘rinishlari uchun boshqa masdarlardan ham foydalanilsa, nāqisi masdar o‘ladi. Misol uchun تَل [tləl] masdarining o‘tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllarini olamiz: تَللى دی – تَللى به . Shu bilan birga masdar manosiga ko‘ra ham ikkiga bo‘linadi:

د حاصل مصدر اسم (də hāsile masdar ism) - Ushbu termin o‘zbek tili grammatikasidagi fe’ning harakat nomiga to‘g‘ri keladi, ya’ni bu - zamon, shaxs –son va mayl ko‘rsatmaydigan fe’l shaklidir. Harakat nomi fe’ning otga xoslangan shaklidir. Misol: كېنىناستل – كېنىناسته – o‘tirmoq – o‘tirish

اسم فاعل (ismi fāi’l) – Pushtu tilidagi hozirgi zamon sifatdoshi hisoblanadi. Hozirgi zamon sifatdoshi fe’ning sifatga xoslangan shakli hisoblanadi. Masalan:

qaramoq - qarayotgan – كتنل – كتونكى

اسم مفعول (ismi mafu’l) – Pushtu tilidagi ismi mafu’l o‘tgan zamon sifatdoshi hisoblanadi. O‘tgan zamon sifatdoshi fe’ning sifatga xoslangan shakli bo‘lib, narsa buyumning belgisini o‘zgargan, harakat natijasi sifatida ifodalaydigan fe’l shaklidir. Masalan: يozmoq - yozgan – ليكل – ليكلي

اسم حالت (ismi hālat) – Pushtu tilida ish harakatning holatini ko‘rsatadigan jarayonga holat ismlari deyiladi. Masalan: يوسف په خندا راغی - Yusuf yig‘lagan holda keldi. Bu o‘zbek tilida holat ravishlariga to‘g‘ri keladi.

فعل (fe’l) – Pushtu tilida o‘zbek tili kabi shaxs yoki narsalarning harakat – holatini bildirib, nima qildi? nima qilyapti? nima qilmoqchi? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladigan so‘zlar fe’l deyiladi.

لازم (lāzim) - Agar fe’ning o‘zi yoki ega bilan kelganda ma’no va maqsad tushunarli bo‘lsa, bunga lāzim masdar deyiladi. Masalan:

kelmoq- U keldi. – راتلل – هغه راغی

متعدى (muta’addi) – Agar fe’ning o‘zi yoki ega bilan kelganda ma’no va maqsad tushunarli bo‘lmasa va bu to‘ldiruvchini talab qilsa bunga muta’addi masdar deyiladi. Masalan:

هغه خط وليکه – ليکل – yozmoq – Sen xat yozding.

فعل ماضى (fe'li māziy) - Fe'li māziy o'tgan zamon bo'lib, bu nutq paytidan oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish harakatni bildiradi. Masalan:

هغه راغى – U keldi.

د مطلقى ماضى (də mutlaqe māziy) - O'tgan zamonning bu turi aniq o'tgan zamon hisoblanadi. Aniq o'tgan zamon asosan o'tgan zamonda sodir bo'lgan voqealar haqida ma'lumot berib suhbatlar va dialoglar, bo'lib o'tgan voqealar haqida ma'lumot berishda ishlatiladi. Misol uchun:

دوه ساعته د مخه موافقه نامه امضا شوه – Ikki soat oldin shartnoma imzolandi.

قريبه ماضى (qariba māziy) – Qariba māziy o'tgan natijali zamon (perfekt ham deyiladi) bo'lib, harakat natijasini ko'rsatadi. Ish – haralat, voqea-hodisaning o'zi so'zlovchi nutqiga qadar tugagan, ammo ish harakatning natijasi nutq jarayonida ham mavjud bo'ladi. Misollar: زه کابل ته تللى يم – Men kobulda borganman.

بعيده ماضى (ba'ida māziy) – Ba'ida māziy uzoq o'tgan zamon (plyusvamperfekt ham deyiladi) bo'lib, o'tgan zamondagi boshqa harakatga nisbatan avval bo'lib o'tgan harakatni ifodalaydi. Bu zamon shuningdek, o'tgan zamondagi muayyan bir vaqtga qadar bo'lgan ish harakatni va oqibati ma'lum bo'lgan harakatni ham ifodalaydi. Misollar: نیکه می دغه کور دیرش کاله مخکى جوړ – Bobom bu uyni 30 yil oldin qurgan edi.

شکيه يا احتمالى ماضى (shakiya yā ihtimāli māziy) – Bu termin o'tgan zamondagi shubha yoki ehtimollikni bildiradi. Bunio'tgan zamonda faraz mayli desak ham bo'laveradi. Ya'ni o'tgan zamonda biror ish harakatni sodir bo'lgan yoki bo'lmaganligini noaniqligini bildiradi. Masalan: هغه به شرلى شوى وى – U haydalgan bo'lsa kerak (lekin haydalmagan bo'lishi ham mumkin)

تمنايى يا شرطى ماضى (tamannāyi yā sharti māziy) – Tamannāyi yā sharti māziy o'zbek tilida shart – istak mayliga to'g'ri keladi. Bu zamon odatda noreal ma'noli shart gaplarda qo'llanadi. Biror bir harakat holatni bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo'lgan harakat holatni biror bir ish harakatning

bajarilish, bajarilmasligi haqida maslahat, taxmin kabi ma'nolarini beradi.
Masalan:

Agar men seni kelishingni bilganimda edi, senga choy qoldirgan bo'lardim. – که زه خبر وای چې ته راځي نو تاته می چای به ساتلی وو (ساتلای وای)

(istimrāri yā nātamāmi māziy) – Pushtu tilida bu zamon o'tgan zamonda ma'lum bir vaqt davomida bajarilgan yoki biror kishi biror narsaga odatlanib takrorlanib turgan ish harakatga nisbatan aytiladi.
Masalan:

U bu yerga kelganda ular kulishib o'tirishgandi. – کله چې دی دلته راغی دوی به خندل

(tavbixi māziy) – Tavbixi moziy o'tgan zamonda bajarilgan yoki bajarilmagan harakatga nisbatan afsusni, achinishni, pushaymonlikni bildiradi.

Buni bilganimda edi! – خبر کړی به یی وم²²

(imkāni yā iqtidāri māziy) – Ushbu termin modallikning o'tgan zamondagi potensial shakli bo'lib, bu shaxsning yoki voqea hodisaning bajara olishlik imkoniyat darajasini ifodalaydi. Ya'ni o'zbek tilida "qila olmoq" ga to'g'ri keladi.

Ular tog'ga ko'tarila oldilar. – هغوی په غر باندی خندلی شول

(fe'li hāl) – Pushtu tilida fe'li hāl hozirgi zamon hisoblanadi. Hozirgi zamon quyidagi holatlarda qo'llaniladi: Ish harakatni ayni paytda bajarilayotganligini ifodalash uchun, ma'lum bir vaqt oralig'ida uzluksiz, doimiy qaytarilib turadigan ish harakatni ifodalash uchun, yaqin kelajakdagi ish harakatni ifodalsh uchun.

Quruvchilar o'zlariga uy qurishyapti. – جوړوونکي خپلو ته کور جوړیږي

(fe'li mustaqbal) – Fe'li mustaqbal o'zbek tilida kelasi zamondir, ya'ni kelajakda bo'ladigan ish harakatga fe'li mustaqbal deyiladi.
Misol: - Sen xat yozasanmi? – ته به خط لیکي؟

خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش²²

عل مضارع (fe'li mazāre') – Pushtu tilidagi fe'li mazāre' kelasi tugallangan zamonni bildiradi. Misol: دوی به په بازار کې میوه نه رانیسي – Ular bozorda meva sotib olishmaydi.

فعل امر (fe'li amr) – Pushtu tilidagi fe'li amr o'zbek tilida buyruq maylidir. Buyruq maylidagi fe'llar harakat holatni bajarishga buyruq, ko'rsatma, qat'iy talab, maslahat, iltimos, istak kabi ma'nolarni anglatadi.. Masalan:

– Bu yerga kel! ²³دلته راشه!

د نفی فعل (də nafi fe'l) - Bu termin o'zbek tilida buyruq maylining inkor shakliga to'g'ri keladi. Buyruq maylining inkor shaklidagi fe'llar harakat holatni bajarmaslikka buyruq, ko'rsatma, qat'iy talab, maslahat, iltimos, istak kabi ma'nolarni anglatadi.

O'g'lim! Daryo bo'yiga borma. – زویه! د سیند څنکه مه شه!

د مجهول نسبت (də majhul nisbat) - Majhul so'zi “noma'lum”, “noaniq” degan ma'nolarni bildirib, majhul nisbatdagi fe'llar ish-harakatning aniq bajaruvchusini ko'rsatmaydi, ya'ni bunda, yuzaki qaraganda harakat bajaruvchisi qatnashmaydi, uning vazifasi ob'ektga yuklanadi. Masalan: دا مجله د – محصلان له پلوه په روق سره لوستل شوه Bu jurnal talabalar tomonidan zavq bilan o'qildi.

د معروف نسبت (də ma'ruf nisbat) - Bu termin aniq nisbatni bildirib, bu nisbatdagi fe'llar harakatning ma'lum shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi, ya'ni bu fe'llar ifodalagan harakat-holatning bajaruvchisi aniq bo'ladi. Masalan: زه هره ورځ کتاب لولم – Men har kuni kitob o'qiyman.

Morfologiyaga oid grammatik terminlar asosan o'zlashgan terminlardan tashkil topgani va ko'p terminlar dubletlardan iboratligi hamda terminlardan foydalanishda arab tilidan o'zlashgan terminlar yetakchi o'rinni egallashi aniqlandi.

Morfologiyaga oid grammatik terminlarga misollar:

د معرفي د اسم څلور قسمونه دي: د علم اسم، د ضمير اسم، د اشاري اسم او د موصول اسم.

خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش ²³

Atoqli ismlar to'rt qismdan iborat: mashhur ism, olmosh, ko'rsatish olmoshi va belgilash olmoshi.

لقب هغه نوم دی چې علاوه د خاص نوم نه یو سړي ته د څه صفت، خصوصیت یا عزت د پاره ورکړی شي.

Biror kishiga uning sifati, xususiyati va hurmati uchun beriladigan qo'shimcha nom laqab deyiladi.

2.3. Sintaksisga oid terminlar

nahv yo wayəl pohəna (nahv yo wayəl pohəna) – Sintaksis (grekcha “tuzish”) grammatikaning ikkinchi qismi bo'lib, unda so'z birikmalari, gap turlari o'rganiladi. Demak, sintaksis so'z birikmasi sintaksisi va gap sintaksisi degan ikkita bo'limni o'z ichiga oladi. Barcha til birliklari (tovush, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi va gap) mana shu sintaksis bo'limida amaliy jihatdan o'zlarini namoyish qiladi.

markab (markab) – Pushtu tilida ikki yoki ikkidan ortiq so'zlar kelsa, bunga tartib [tartib] deyiladi. Agar shunday tartiblardan so'z birikmasi yoki biror jumla qurilsa, bunga markab yoki kalam deyiladi. Markab yo kalom ham ikkiga bo'linadi:

nāqis (yo nimgəray) markab – ناقص (یا نیمکړی) مرکب

tām (yo kalām yo jumla) markab – تام (یا کلام یا جمله) مرکب

nāqis markab (nāqis markab) – Pushtu tilida so'zlar tarkibidan maqsad tushunilmaydigan ya'ni ikki va undan ortiq so'zning ma'no, grammatik va ohang jihatdan birining boshqasiga tobe bo'lib bog'lanishiga nāqis markab ya'ni so'z birikmasi deb ataladi. Pushtu tilida so'z birikmasining bir necha turi mavjud.

izāfi markab (izāfi markab) – Pushtu tilida qaratqich kelishigi (ko'rsatkichi د [də] predlogi hisoblanadi) bilan ifodalangan birikmalar izofali birikmalar hisoblanadi. Bunda hokim so'z biror narsaga tegishli, qarashli bo'lgan shaxs yoki predmetni bildiradi. Bunda birinchi aniqlovchi keyin aniqlanmish keladi. Lekin boshqa tillardan pushtu tiliga kirib kelgan so'z birikmalari borki ularda

birinchi aniqlanmish keyin aniqlovchi keladi va bunday birikmalarda pushtu tilidagi dā predlogi ishlatilmaydi. Masalan:

د اران پاچا – Eronning podshohi

نايب مدرس – o‘qituvchining yordamchisi

توصيفى مركب (tawsifi markab) – Pushtu tilida tavsifi markab sifatlovchili birikma bo‘lib, tobe so‘z hokim so‘zning sifat va xususiyatini bildiradi. Bunda birikmadagi so‘zlar hech qanday qo‘shimcha olmaydi. Masalan:

بنايسته دجونى – chiroyli qiz

عددى يا تعدادى مركب (a’dadi yo te’dādi markab) – Pushtu tilida bu birikma sonli birikma bo‘lib, bir so‘z ikkinchi so‘zning sonini ko‘rsatadi. Masalan:

تو رت ايوول – to‘rt ayol

امتزاجى مركب (imtiāji markab) – Imtizāji (biriktirilgan) markab ikkita bir-biriga bog‘liq bo‘lamagan so‘zdan tashkil topgan hisoblanadi. Lekin ikkalasi birga kelib, boshqa ismni ifodalab keladi. Masalan, [qissaxāne] قصه خانى so‘zidagi hikoya (hikoya) va uy (uy) so‘zlari birlashib, bundan XIX asrda Pokiston hududidagi adabiyot o‘chog‘i bo‘lgan, shoir va yozuvchilar hamda nashriyotlar markazi bo‘lgan ko‘cha tushuniladi.

ا’طفى مركب (a’tfi markab) – A’tf - bog‘lovchi degan ma’noni bildirib, a’tfi markab deganda bog‘lovchi ishtirok etgan birikmalar tushuniladi. Agar so‘zlovchi shu birikmadagi so‘zlarning birini ishlatmasa, tinglovchiga tushunarsiz bo‘lib qolish ehtimoli bor. Shuning uchun birikma teng bog‘langan bo‘lsa ham pushtunlar bunday so‘zlarni so‘z birikmalari qatoriga qo‘shgan. Bular so‘z birikmalarining boshqa turlari bilan ham birga kelishi mumkin. Masalan: زعفر او حامد – Zafar va Hamid

د عثمان او سرور پلار – Usmon va Sarvarning otasi

تميزى مركب (tamizi markab) – Pushtu tilida tamiz deb shunday so‘zga aytiladiki, bunda biror so‘z, jumla yoki birikma noaniq bo‘ladi. Chunki birikmadagi bir so‘z tushib qolgan bo‘ladi. Masalan, پڼه (روپى) birikmasining ma’nosi besh (rupi) bo‘ladi. Agar suhbat davomida “besh” so‘zini o‘zini qo‘llasa ham, uning uning ikkinchi qismi mavjud bo‘ladi. Shunday birikmalar

tamizi markab deyiladi. Bundan tashqari ba'zi so'zlar borki, ular ishtirok etgan birikmalarda ham noaniqlik bo'ladi va bular ham tamizi markab deyiladi.

Masalan:

تول هېكان – barcha bolalar

هر سړی – har bir kishi

بدلی مرکب (badali markab) – Pushtu tilida ikkita ism yoki bitta ism va bitta birikma shunday keladiki, ikkalasidan murod bir kishi bo'ladi. Ularning biri ikkinchisini izohlab keladi. Masalan, ستا نوکر سیدگل راغلی وو – Xizmatkoring Saidgul kelgan edi.

Bu gapda “xizmatkoring” va “Saidgul” bir kishi. Xizmatgoring so'zi Saidgulni izohlab kelyapti. Shunday so'zlar badali markab (o'rnini bosadigan birikma) deyiladi.

د بیان عطف یا معطوف بیان (dā bayān a'tf yā ma'tuf bayān) - Gapda ikkita ism birga kelib, biri ikkinchisini izohlab kelsa, ma'tuf bayon (birlashgan birikma) bo'ladi. Masalan, احمدشاه درانی va صاحبزاده ابدالقیوم (Ahmadshoh Durrani va Sohibzoda Abdulqayyum) birikmalarida درانی va صاحبزاده so'zlari احمدشاه va ابدالقیوم ni izohlab kelyapti. Zohiran bu qoida yuqoridagi badali markab bilan bir xil tuyuladi. Lekin bularning farqi bor. Ma'tuf bayonda birkmani bittasini tushirib qoldirib, ajratib yoki almashtirib bo'lmaydi. Badali markabda bittasini tushirib qoldirilsa ham ma'no tushunaveriladi. Shuningdek badali markabda izohlovchini boshqa shaxsga ishlatish mumkin. Masalan, “xizmatgoring Saidgul” birikmasida “xizmatgoring” so'zini boshqa kishiga ham ishlatsa bo'ladi.

استثنایی مرکب (istisnāyi markab) - Nutq jarayonida gapdan anglashilayotgan ko'pgina predmet yoki shaxslarning birini yoki bir nechasini ajratishga pushtu tilida istisnoyi markab ya'ni istisno birikmalar deyiladi. Ko'pincha quyidagi tarzda ishlatiladi: تول هلكان راغلل بی د فاروق نه – Barcha bolalar keldi, Foruqdan tashqari.

مركب تاكيد (markabi tākid) – Gap tarkibida biror soʻz yoki birikmani taʼkid bilan, kuchaytirib aytilsa, tākidi markab deyiladi. Buni ohang yordamida, qoʻshimcha orqali yoki soʻzlarni takrorlash bilan hosil qilish mumkin. Masalan:

تول هلکان راغلل – Barcha bolalar keldi. (bu gapda ohangdan foydalaniladi va “barcha” soʻzi “bolalarni takidlab kelyapti”)

تابع مهمل او متبوع (tābeʼ muhmal aw matbuʼ) – Bu terminning maʼnosi hokim soʻz va uning maʼnosiz tobeʼ soʻzidir. Bu oʻzbek tilida takror soʻzlarga toʻgʻri keladi. Masalan: مودی – مودی – non-pon, مور – کور – uy-puy

مركب اشاری (markabe ishāre) – Pushtu tilida koʻrsatish olmoshlari bilan ifodalangan soʻz birikmalariga markabe ishore deyiladi. Masalan: دا گل – bu gul

مسند علیہ (musnad alayh) – Bu atama oʻzbek tilida ega maʼnoni bildiradi. Gapda kesim bilan bogʻlanib, shu kesimdagi qoʻshimchalar ifodalagan shaxs-sonni ifodalovchi va kim? nima? qayer? soʻroqlariga javob boʻladigan bosh boʻlak ega deyiladi. Ega ismlar bilan, otlashgan soʻzlar bilan, iboralar bilan ifodalanishi mumkin. Oʻtimli feʼl ishtirok etgan oʻtgan zamonda ega kosvenniy shaklda ifodalanadi. Misol uchun: دوکانوالا راته دوی منی را کړلې – Doʻkonchi menga ikkita olma berdi.

مسند (musnad) – Musnad oʻzbek tilida kesimdir. Gapning markazini tashkil etib, boshqa boʻlaklarni oʻz atrofiga birlashtiruvchi, tasdiq-inkor, shaxs-son, zamon, mayl maʼnolarini ifodalovchi bosh boʻlak kesim deb ataladi. Misol:

مونږ غر ته ځو – biz togʻga ketyapmiz.

مضاف الیه (muzof ilayhi) – Pushtu tilida gapdagi biror boʻlakning belgisini yoki biror narsa buyumning boshqasiga qarashli ekanligini bildirgan boʻlak muzof ilayhi yaʼni aniqlovchi deyiladi. Aniqlovchi qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechanchi? necha? qayerdagi? kimning? nimaning? qayerning? kabi soʻroqlarga javob boʻladi. Aniqlovchi gap ichida har doim otga yoki otlashgan soʻzga bogʻlanadi. Misollar:

زمرک خپل کتابونه په تور بکس کې وچول – Zmarak oʻz kitoblarini qora sumkaga soldi.

مفعول (mafu'l) – Gapdagi biror bo‘lakni to‘ldirib, unga boshqaruv yo‘li bilan tobe holatda bog‘langan bo‘lak mafu’l ya’ni to‘ldiruvchi deyiladi. To‘ldiruvchi asosan fe’l kesimga bog‘lanadi. Misol:

تانک له پول څخه تیر شو – Tank ko‘prikdan o‘tdi.

قید یا ظرف (qayd yo zarf) – Ko‘pincha fe’l kesimga bog‘lanib, uning belgisini bildirgan bo‘lak qayd ya’ni hol deyiladi. Ma’nosiga ko‘ra vaziyat, o‘rin, payt, miqdor, sabab, maqsad, to‘siqsizlik, shart hollari mavjud. Misol:

زما زوی په ژړا راغی – Mening o‘g‘lim yig‘lab keldi.

Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari

Pushtu tilida gap ifoda maqsadiga ko‘ra ikki qismga bo‘linadi:

خبریه جمله – xabariya jumla

انشائیة جمله – inshāiyya jumla

امر (amr) – Amr ya’ni buyruq gaplarda suhbatdoshni nimadir qilishga undash, da’vat qilish masad qilib qo‘yiladi. Bunday gaplar iltimos, buyruq, taklif, maslahat, yalinish tarzida bo‘lishi mumkin. Masalan:

دلته راشه – Bu yoqqa kel.

نفي (nafi) – Nafi ya’ni buyruq gap inkori hisoblanadi, ya’ni bunday gaplarda suhbatdoshni nimadir qilmaslikka undash, da’vat qilish masad qilib qo‘yiladi. Bunday gaplar iltimos, buyruq, taklif, maslahat, yalinish tarzida bo‘lishi mumkin. Masalan: ما ته تلفون مه كوه – Menga telefon qilma.

استفهام (istifhām) – Bu termin o‘zbek tilida so‘roq gap bo‘lib, bu orqali so‘zlovchi o‘zi bayon qilgan fikrga suhbatdoshini fikr bildirishga undaydi, tasdiqlash yoki inkor qilishga undaydi. Masalan: ته د کورنۍ وظیفه اجرا کوي یا او که نه ؟ - Sen uy vazifasini qilasanmi yoki yo‘g‘mi?

تعجب (ta’jjub) – Bu biror narsadan taajjublanishni bildiradi. Masalan:

د رحمان شعر ته حیران یم چې حیث قافیہ یی نشته – Rahmonning she’riga hayronman, umuman qofiya yo‘q.

شایسی (shābase) - Shābase termini biror kimga bajargan ishi uchun tahsin aytishni bildiradi. Masalan: آفرین دی چې ته په جنگ کې بریالی شوی – Qoyil! Jangda g‘olib bo‘lding!

ندا (nidā) - Bu terminidan biror kishiga yoki biror nimaga nido ya'ni chaqiriq, hayqiriq tushuniladi. Masalan:

گلاندامه ! راشه راشه !! – Gulandom! Kel, kel!!

تاسف (tāssuf) – Tāssuf terminidan bo'lib o'tgan biror narsa, voqea-hodisaga afsus chekishi, g'amga botishini izhor qilish tushuniladi. Masalan:

ډير افسوس دی چې انستیتوت ته شامل کیدلای نه شوم! – Afsuski institutga kira olmadim.

قسم (qasam) – Biror kishini ishontirish uchun aytiladigan so'z qasam deyiladi. Masalan:

زه قسم خورم چې زما خبر رښتیا دی – Qasam ichaman, gapim rost!

تنبيه (tanbih) – Pushtu tilida biror nimaga e'toborni qaratish, diqqatni tortish uchun ishlatiladigan gap tanbih deyiladi. Masalan:

پام کوه چې ونه لویږي!²⁴

تمنا (tamannā) – Tamannā gaplar biror narsani xohlash yoki istashni bildiradigan gaplardir.

Masalan: کاشکی دغه موټر زما مائر وای – Qaniydi bu mashina mening mashinam bo'lganda edi!

دعا (duo) – Duo deganda Oллоhdan biror narsa xohlab iltijo qilish tushuniladi. Masalan:

خدای دی ستا گناه وبخښی! – Oллоh gunohingni kechirsin.

Aytib o'tganimizdek, yuqoridagi grammatik terminlarni bayon qilishda Xiyol Buhoriyning “Də pashto sarf va naxv” (“pushtu tili grammatikasi”) kitobidan foydalanildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muallif pushtu tili grammatikasini tavsiflashda arab tili grammatikasidan foydalangan. Masalan, arab tili grammatikasida mavjud bo'lgan “a'dadi yo te'dādi markab”, “imtiāji markab”, “a'tfi markab”, “tamizi markab”, “badali markab”, “də bayān a'tf yā ma'tuf bayān”, “istisnāyi markab”, “markabi tākidi”, “tābe' muhmal aw matbu”,

²⁴ د رښتینۍ بوټیه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م.

“markabe ishāre” soʻz birikmalari “Də pashto sarf va naxv” kitobida ham koʻrish mumkin. Albatta muallif pushtu tilidan kelib chiqib bu ishni amalga oshirgan. Pushtunlar oldindan grammatik terminlari asosan arab tilidan oʻzlashgan terminlardan tashkil topgan grammatika kitoblardan foydalangani uchun boshqa kitoblarga qaraganda mukammalroq tuzilgan Xiyol Buhoriyning kitobini ijobiy qabul qildi. Shuning uchun ham grammatik terminlari qator arxaik va ichki imkoniyatlar asosida yaratilgan Mujovir Ahmad Ziyoning “Pashto pashviya” kitobini qabul qilmadi. Bundan shuni bilish mumkinki, pushtu tili grammatikasida arab tilidan oʻzlashgan grammatik terminlar mustahkam oʻrin egallagan.

Sintaksisga oid terminlarga “Də pashto sarf va naxv” kitobidan quyidagi misollarni keltirish mumkin:

خبریه جمله هغه جملې ته وایي چې یکنې د دروغو او رښتیا عحتمال کیدی شي.

Gapda yolgʻon va haqiqat ehtimolligi boʻlgan gaplarga xabariya jumla deyiladi.

فعلیه جمله هغه جملې ته وایي چې مسند الیه په کښې اسم دي او مسند فعل وي.

Gapda ega ismdan, kesim esa feʻldan iborat jumlagi feʻliya jumla deyiladi.

2.4. Grammatik terminlarning struktur tahlili

Soʻzning negizini tashkil qiluvchi morfemalar miqdori, ularning oʻziga xosligi va oʻzaro munosabatiga koʻra pushtu tilidagi barcha soʻzlar, sodda (tub), yasama, qoʻshma va murakkab yasama soʻzlarga boʻlinishi mumkin.²⁵

Endi yuqorida keltirib oʻtilgan terminlardan pushtu tiliga xos boʻlgan grammatik terminlarning struktur tahlili keltiriladi.

2.4.1. Tub grammatik terminlar

Adabiyotlarda tarkibida birgina lugʻaviy maʼnoli qism (morfema) boʻlgan

²⁵ Mannonov A.M. Quronbekov A. Pushtu tili leksikologiyasi.-Toshkent, 2012,107-b.

soʻz tub soʻz sifatida qabul qilinishi taʼkidlanadi.²⁶ Bir qator olimlar esa tub soʻzni sodda soʻz tarkibida oʻrganadilar.²⁷

Yirik olim N.M. Shanskiy sodda soʻz asosining morfologik strukturasi ikki katta guruhga ajralishini taʼkidlaydi. Bular: tub asosli soʻz va yasama asosli soʻz.²⁸ Lekin pushtu tili leksikologiyasida tub soʻz sodda soʻz sifatida, yasama soʻz esa alohida oʻrganiladi²⁹. Tub (sodda) soʻz belgilari quyidagicha:

- 1) Tub asosning morfologik jihatdan qismlarga boʻlinmasligi;
- 2) Doimo uning vositasiz, u yoki bu maʼnoni ifoda etish uchun biron-bir qoʻshimchasiz ifoda etilishi lozim.

Demak, birgina oʻzak morfemadan tarkib topgan soʻz tub soʻz deyiladi. Shuningdek, tub soʻz uchun xos boʻlgan fikrlar tub terminlar uchun ham oʻrinlidir.

Malakaviy ishni qilish davomida bor yoʻgʻi bitta sof pushtucha tub terminni guvohi boʻldik:

koʻplik

gunar

ګنړ

Pushtu tilida sof pushtucha tub grammatik terminlarning kamligi, grammatik terminlarining aksariyati oʻzlashma terminlar hisobiga toʻgʻri kelishi bilan izohlanadi.

Bu ikki terminni quyidagi misol orqali koʻrishimiz mumkin:

یواځ د یو چیز نوم – لکه گل، رباب، سپرلی او داسی نور. ګنړ یعنی د دوو یا دوو نه د زیاتو چیزونه نوم – لکه گلونه، ریایونه، شیرلي او داسی نور.

Birlik bir narsaning nomi, masalan, gul, rubob, bahor va boshqalar. Koʻplik esa ikki va ikkitadan koʻp narsalarning nomi, masalan, gullar, ruboblar, bahorlar va boshqalar.

²⁶ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. -М., 2001.

²⁷ Куронбеков А. Форс тили лексикологияси. —Т.: 2009.

²⁸ Шанский Н.М. Основы словообразовательного анализа. - М.:1953. -С.17-18.

²⁹ Mannonov A.M., Quronbekov A. Pushtu tili leksikologiyasi. –Toshkent, 2012.– B.112.

2.4.2. Yasama grammatik terminlar

Adabiyotlarda agar soʻzlar (terminlar) biron-bir qoʻshimcha qoʻshish orqali yasalgan boʻlsa, yasama soʻz deyilishi aytib oʻtilgan.³⁰ Bunday soʻz yasalishi koʻpgina tillarga xos hisoblanadi. Lekin baʼzi tillarda soʻz yasalishi turlicha kechishi kuzatiladi. Masalan, arab tilida soʻzlar (qoʻshimcha qoʻshishdan koʻra) aksariyat hollarda ichki fleksiya orqali yasaladi. Pushtu tilida esa qoʻshimcha qoʻshish orqali, ichki fleksiya orqali yoki soʻz oxiridagi harflarni oʻzgartirish orqali ham soʻz (termin) yasalishi mumkin³¹.

Buni terminlar misolida ham koʻrishimiz mumkin. Yuqoridagi terminlar orasida pushtu tiliga xos boʻlgan quyidagi yasama grammatik terminlarni koʻrishimiz mumkin:

boʻgin	torəkay	تورکی
jarangsiz undoshlar	begʻaga	بی غره
jarangli undoshlar	gagʻiz	برغیز
alifbo	torəy	تورئ
zvarakay	zwarakay	زورکی
sukun belgisi	gʻrunday	غورندی
bogʻlangan olmosh	nxətay	نښتی
birlik	yavāz	یواخ

Yasama grammatik terminlarga misollar:

د فاعلی حالت نښتی ضمیرونه لاندې لیکلی کیږی. دا ضمیرونه د مؤنث، مذکر دواړه یو شان راځی.

³⁰Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. -Toshkent,2009. -B.6.

³¹Mannonov A.M., Quronbekov A. Pushtu tili leksikologiyasi.-Toshkent, 2012,B.112.

Ergativniy holatdagi bog‘langan olmoshlar quyidagicha yoziladi – bu olmoshlar muannas va muzakkar, ikkovi uchun ham bir xil keladi (ishlatiladi).

د لاندی جملې تورکي ته بیل کئ

Quyidagi jumlani bo‘g‘inlarga ajrating.

2.4.3. Qo‘shma grammatik terminlar

Pushtu tilida qo‘shma so‘zlar o‘zining tarkibiy turlarining juda ko‘p, xilma xilligi bilan ajralib turadi. Bu so‘zlarning o‘ziga xosligi shundaki, ularning negizi murakkab bo‘lib, ikkita o‘zak morfemadan tashkil topadi. Shuni aytish kerakki, biz bu yerda “o‘zak morfema deb” shartli ravishda aytamiz, chunki pushtu tilida birinchi bo‘lagi nafaqat o‘zak morfema bilan, balki vositasiz yoki vositali kelishikdagi ot so‘z shaklidan iborat. Ikkinchi bo‘lagi esa asosiy negizdan tashqari vositasiz kelishikdagi ot so‘z shakli bilan ham ifodalangan bo‘lashi mumkin.³² Tadqiq qilingan malakaviy ishda quyidagi qo‘shma grammatik terminlar aniqlandi:

sof (arabiy) harflar	tāze tori	تازې تورې
serebral harflar	g‘bargjbay	غېرژبې
orfografiya	lik xod	لیک ځود

Qo‘shma grammatik terminlarni gibrid terminlar orasida ham uchratish mumkin. Bu terminlarning komponentlari arabcha-pushtucha va pushtucha-arabcha tarzida uchraydi:

cho‘ziq yo (e)	ugda majhula yo	اوردې مجهولې
shamsi va qamariy harflar	shamsiy aw qamariy tori	شمسې او قمرې تورې

³² Mannonov A.M., Quronbekov A. Pushtu tili leksikologiyasi.-Toshkent, 2012.-B.112.

nuqtasiz harflar	musammal tori	مصل توري
uzoq ko'rsatish olmoshlari	də liri ishāre	د لری اشارې

Misollar keltiramiz:

غبرگژبي په ډير ژبي کښي نه راځي

Serebrallar ko'ptillarda kelmaydi(uchramaydi).

د عربی توري په پښتو تازې توري وایل شي.

Arabiy harflar pushtu tilida toza (sof) harflar deyiladi.

2.4.4. Murakkab yasama grammatik terminlar

Pushtu tilida murakkab yasama so'zlar ikkita o'zak negiz va so'z yasovchi qo'shimchadan iborat bo'lib, bu qo'shimcha faqat ikkinchi bo'lagini emas, balki qo'shma so'zni butunligicha shakllantiradi.³³ Pushtu tili grammatikasida ham murakkab yasama so'zlar kabi murakkab yasama terminlar mavjud bo'lib, quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

illatli harflar	nājurtyā tori	ناجورتيا توري
oldin keluvchi harflar	wrāndinay lagedəlay tori	وراندینی لگیدلی توري
keyin keluvchi harflar	warpase lagedəlay tori	ورپسي لگیدلی توري
nuqtali harflar	təkwāla tori	تکوواله توري
sintaksis	wayəl pohəna	ویل پوهنه

Misollarga e'tibor qarating:

په پښتو کښي ټکوواله تورو ته خالی توری نه وایی.

³³ Mannonov A.M., Quronbekov A. Pushtu tili leksikologiyasi. - Toshkent, 2012. – B.113.

Pushtu tilida nuqtali harflarga holi harflar deyilmaydi.

په پښتو کښي «ويل پوهنه» خاص اصطلاح دی.

Pushtu tilida “vayəlpohəna”(“sintaksis”) (pushtu tiliga) xos termin hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlab o’tish kerakki, tahlil jarayonida pushtu tiliga xos birikma grammatik terminlar kuzatilmadi. Ammo arab tilidan o’zlashgan grammatik terminlar ichida birikma terminlarni ko’pligi aniqlandi.

Tahlillar quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

I bob xulosalarida aytib o’tilganidek, sof pushtucha grammatik terminlar pushtu tili grammatikasidagi terminlarning 17 ta, ya’ni 8.9 % ni tashkil qildi. Agar 17 ta termini 100% deb oladigan bo’lsak:

Tub grammatik terminlar bitta, 5.8 % ni tashkil qildi.

Yasama grammatik terminlar 8 ta, 47 % ni tashkil qildi.

Qo’shma grammatik terminlar 3 ta, 17.6% ni tashkil qiladi. Agar sof pushtucha termin qatnashgan gibrid terminlarni ham qo’shsak, 7 ta, 33.3% tashkil qiladi

Murakkab yasama grammatik terminlar 5 ta, 29.4% ni tashkil qildi.

Xulosa

Umumiy xulosa qilib quyidagilarni aytish mumkin:

1. Pushtu tilidagi grammatik terminlarning ko'p qismini bir mavzuga oid dublet terminlar tashkil qiladi. Masalan, ingliz tilidan o'zlashgan فونیتیک [fonetik] "fonetika" termini sof pushtucha برغ پوهنه [gag'pohəna] termini bilan, [aksent] "aksent" termini arab tilidan o'zlashgan خج [xaj] termini bilan bir xil qo'llanadi. Bunday dubletlar arab yoki fors, pushtu yoki arab tiliga xos terminlar bo'lishi mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki, pushtu tilidagi grammatik terminlarning yagona tizimi yaratilmagan. Bu fanda tushunmovchilik va noaniqlikka olib keladi.

2. Grammatik terminlarning izohi va qo'llash qoidalarini bayon qilinishini kuzatilsa, dublet terminlarning ichida arab tilidan o'zlashgan terminlar ko'p ishlatilishining guvohi bo'lish mumkin. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, arab tilidan o'zlashgan grammatik terminlar pushtu tili grammatikasidan mustahkam joy olgan.

Ushbu BMI da o'rganilgan barcha terminlar soni, dubletlarni ham hisobga olganda 200ga yaqinni tashkil etdi. Bularni klassifikatsiya qilish quyidagi natijalarni berdi:

3. Sof pushtucha grammatik terminlar soni 17 ta, ya'ni 8.9 % ni tashkil qildi.

4. Fors tilidan o'zlashgan grammatik terminlar soni 3 ta, ya'ni 1.5% ni tashkil qildi. Shuni takidlab o'tish joizki, fors tilidan o'zlashgan ana shu 3 ta termin hisoblangan zuvar, zir, pesh terminlari, ularning dubleti bo'lgan va arab tilidan o'zlashgan fatha, kasra, zamma terminlariga qaraganda keng foydalaniladi.

5. Ingliz tilidan o'zlashgan grammatik terminlar soni 7 ta, ya'ni 3.6% ni tashkil qildi.

6. Gibrid grammatik terminlar soni 10 ta, ya'ni 5.2 % ni tani tashkil qildi.

7. Arab tilidan o‘zlashgan grammatik terminlar soni 151 tani, ya’ni 79.5% ni tashkil qildi. Agar gibrig terminlar tarkibidagi arabiy terminlarni ham qo‘shsak, 84.2% ni ko‘rsatadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, arab tilidan o‘zlashgan grammatik terminlar pushtu tili grammatikasida yetakchi o‘rinni egallaydi.

Ta’kidlanganidek, sof pushtucha grammatik terminlar pushtu tili grammatikasidagi terminlarning 17 ta, ya’ni 8.9 % ni tashkil qildi. Ularni struktur-semantik jihatdan o‘rganib, quyidagi xulosaga kelish mumkin. Agar 17 ta terminni 100% deb oladigan bo‘lsak:

8. Tub grammatik terminlar bitta, 5.8 % ni tashkil qildi. Bundan tub grammatik terminlarni juda ham kammahsulligini bilish mumkin.

9. Qo‘shma grammatik terminlar 3 ta, 17.6% ni tashkil qiladi. Agar sof pushtucha termin qatnashgan gibrid terminlarni ham qo‘shsak, 7 ta, 33.3% tashkil qiladi.

10. Murakkab yasama grammatik terminlar 5 ta, 29.4% ni tashkil qildi.

11. Yasama grammatik terminlar 8 ta, 47 % ni tashkil qildi. Bu natijadan sof pushtucha terminlarning ichida yasama grammatik terminlar struktur-semantik jihatdan eng ko‘pini tashkil qilishini bilish mumkin.

Pushtu tilidagi grammatik terminlarning struktur-semantik va leksik jihatlari borasida yanada chuqur va mukammal ish olib borilsa, bundanda qiziqarli va foydali ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.
 2. Mannonov A.M., Quronbekov A. Pushtu tili leksikologiyasi.- Toshkent, 2012.
 3. Madrim Hamroyev, Ona tili darsligi. - Toshkent, 2012.
 4. Акобиров С.Ф. Тил ва терминология. – Тошкент, 1968.
- Хожиев А., Решетова Л. Узбек тили грамматик терминларининг кискача изохли лугати. - Тошкент, 1980.

Rus tilidagi adabiyotlar:

1. Калинина З.М. Очерки лексикологии современного пушту. - М., 1972.
2. Сикоев Р.Р. Именное словообразование в современном литературном пушту.- М., 1967.
3. Лебедев К.А. Грамматика языка пушту.- Москва., 1956.
4. Грюнберг А.Л. Очерк грамматики афганского языка (пашто) . - Ленинград, 1987.
5. Лебедев К.А. Афганистан: язык, литература, этнография.-М., 2003.
6. Penzl H.A. Grammar of Pashto. - Washington, 1955.
7. Яцевич Л.С., Терепко О.С. Учебник языка пушту. Москва., 2001.
8. Асланов М.Г. Пушту-русский словарь.-Москва., 1985.
9. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. -М.:Наука, 1977.
10. Реформатский А. А. Термин как член лексической системы языка. Проблемы структурной лингвистики. -М., 1968.
11. Халидов Б.З. Лексическая характеристика арабских заимствований в афганском языке. –Ташкент, 1964.
12. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. -М., 2001.

Pushtu tilidagi asosiy manbalar:

خیال بخاری، «د پښتو صرف و نحو» چاپ: یونیورسټی بک الجسی، پشاور ښار
عبدالعلي رسول زاده په مالمو کي د پښتو ژبي ښوونکي، سوېډن، ۲۰۱۰، ۲، ۳۰

Badiiy adabiyotlar ro'yxati:

1. د رښتینۍ یوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م.
2. خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.
3. د مور مینه. نصر احمد احمدي. کابل. ۲۰۰۶

Arab tilidan o‘zlashgan grammatik terminlar

alifbo	الفبا
harakatlar	حركات
fatha	فتحه
kasra	كسره
zamma	ضمه
qisqa alif (a)	مقصوره الف
cho‘ziq alif (a)	ممدوده الف
sukun	ساكن
ildingi harf	ماقبل
keying harf	مابعد
cho‘ziq talaffuzli harflar	اشباع
regressiv assimilatsiya	ادغام
burunda aytiladigan nun	نون غنه
tanvin	تنوين
tashdid	تشديد
muannas yo (əy)	تانيثي ئ
qattiq yo (əy)	متقله ئ
aniq yo (i)	معروفه ي
majhul yo (e)	مجهوله ي
diftongli yo (ay)	ملينه ي
aniq vov (u)	معروف واو
majhul vov (o‘)	مجهول واو
talaffuzda o‘qilmaydigan vov	معدوله واو
alifni yoyga o‘zgartirish	اماله
qisqartirish	حذف
so‘z oxirida qisqartirish	ترخيم
tovush tushishi	تخفيف
tovush ortishi	زيادت
tovush almashishi	قلب
tovush o‘zgarishi	ابدال
urg‘u	خج
morfologiya	صرف
muzakkar jins ismlar	مذكر اسمونه
muannas jins ismlar	مؤنث اسمونه
birlik	واحد
ko‘plik	جمع
tub so‘zlar	اسم جامد
yasama so‘zlar	اسم مشتق
atoqli otlar	اسم معروفی
taxallus	تخلص

unvon	ختاب
laqab	لقب
kunya	كنيت
olmosh	اسم ضمير
alohida olmosh	ضمير منفصل
bog‘langan olmosh	ضمير متصل
kishilik olmoshi	ضمماير شخصى
kosvenniy olmosh	ضمماير غير مستقيم
to‘ldiruvchili olmosh	ضمماير مفعولى
egalik olmoshlari	ضمماير اضافى
ko‘rsatish olmoshlari	اسم اشارى
belgilash olmoshi	اسم موصول
turdosh ismlar	اسم نكرى
kichraytirilgan otlar	اسم تصغير
bo‘rttirilgan otlar	اسم مكبر
jihozlar ismlari	اسم آلى
ravish	اسم ظرف
o‘rin ravishi	ظرف مكان
payt ravishi	ظرف زمان
taqlid so‘zlar	اسم صوت
kinoya olmosh	اسم كنايى
so‘roq olmoshi	اسم استفهام
sifat	اسم صفت
sifatning oddiy darajasi	مطلق صفت
sifatning qiyosiy darajasi	تفضيل صفت
sifatning orttirma darajasi	مبالغه صفت
nisbi sifat	نسبى صفت
sonli sifat	عددى صفت
asliy (sanoq) sonlar	اعداد ذاتى
tartib sonlar	اعداد ترتيبى
kasr sonlar	اعداد كسرى
infinitiv fe’l	اسم مصدر
sodda fe’l	وضعى مصدرونه
murakkab fe’l	تركيبى مصدرونه
fe’ldan yasalgan mavhum otlar	جعى مصدرونه
fe’lning harakat nomi	حاصل مصدر اسم
hozirgi zamon sifatdoshi	اسم فاعل
o‘tgan zamon sifatdoshi	اسم مفعول
holat ismlari	اسم حالت
fe’l	فعل
o‘tgan zamon	فعل ماضى
aniq o‘tgan zamon	مطلقى ماضى
o‘tgan natijali zamon	قريبه ماضى

uzoq o'tgan zamon	بعیده ماضی
o'tgan zamon faraz mayli	شکیه ماضی
o'tgan zamon shart mayli	شرطی ماضی
o'tgan zamon davom fe'li	استمراری ماضی
o'tgan zamon pushaymonlik mayli	توبیخی ماضی
o'tgan zamon potensial shakl	اقتداری ماضی
hozirgi zamon	فعل حال
kelasi zamon	فعل مستقبل
kelasi tugallangan zamon	فعل مضارع
buyruq mayli	فعل امر
inkor mayli	نفی فعل
majhul nisbat	مجهول نسبت
aniq nisbat	معروف نسبت
sintaksis	نحو
so'z birikmasi	ناقص مرکب
izofi birikma	اضافی مرکب
sifatlovchi birikma	توصیفی مرکب
sonli birikma	عددی یا تعدادی مرکب
biriktirilgan birikma	امتزاجی مرکب
bog'lovchili birikma	عطفی مرکب
noaniq birikma	تمیزی مرکب
izohlovchili birikma	بدلی مرکب
hokim va ma'nosiz tobe' birikma	تابع مهمل او متبوع
istisnoli birikma	استثنایی مرکب
ta'kidli birikma	مرکب تاکید
ko'rsatish olmoshi birikmasi	مرکب اشاری
jumla	تام مرکب
ega	مسند علیه
kesim	مسند
aniqllovchi	مضاف الیه
to'ldiruvchi	مفعول
hol	قید یا ظرف
ot kesimli gap	اسمیه جمله
fe'l kesimli gap	فعلیه جمله
buyruq gap	امر
inkor gap	نفی
so'roq gap	استفهام
taajjub gap	تعجب
chaqiriq gap	ندا
afsus gap	تأسف
qasam gap	قسم
diqqat gap	تنبيه
xohish-istak gapi	تمنا

duo gap	دعا
---------	-----

Sof pushtu tilidagi grammatik terminlar

alifbo	تورئ
sof arabiy harflar	تازې توري
illatli harflar	ناجوړتيا توري
sokin belgisi	غوړندى
oldin keluvchi harflar	وړاندينى توري
keyin keluvchi harflar	ورپسې لگيدلى توري
jarangli undosh	ېرغيز
jarangsiz undoshlar	بې غېره
serebrallar	غېرگژبى
bo'g'in	توركى
nuqtali harflar	ټكوواله توري
zvarakay	زوركى
birlik	يواځ
ko'plik	گنډ
bog'langan olmosh	نښتى
sintaksis	ويل پوهنه
fonetika	غېر پوهنه
orfografiya	ليک بنود

Ingliz tilidan o‘zlashgan grammatik terminlar

morfologiya	مورفولوجي
fonetika	فونيتيک
urg‘u	اکسنٲ
diftong	دفتانگ
ot	نون
fe‘l	ورب
unli tovush	واول

Gibrid grammatik terminlar

illatli harflar	د عآت توري
abjad harflar	د ابجدو توري
qamari harflar	قمری توري
shamsi harflar	شمسی توري
nuqtasiz harflar	مصل توري
nuqtali harflar	منقوطه توري
ujda majhula (yo) (e)	اورده مجهوله ی
muannas jins ismlari	بنخه اسمونه
uzoq ko‘rsatish olmoshlari	دلری اشاری
morfologiya	مورفیم پوهنه

Fors tilidan o‘zlashgan grammatik terminlar

zuvar	زور
zer	زېر
pesh	پېښ
nar ism	نر اسم
nazdi ishāre	نزدی اشاری

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
ERON – AFG’ON FILOLOGIYASI KAFEDRASI
BITIRUVCHI KURS TALABASI O.A.MAMATQULOVNING
“PUSHTU TILIDA GRAMMATIK TERMINLAR”
MAVZUSIDA YOZILGAN BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA

ILMIY RAHBAR XULOSASI

Bitiruv malakaviy ishi belgilangan rejaga muvofiq ravishda amalga oshirilgan. Imkoniyatlardan to’liq foydalanilgan. Qo’yilgan maqsadga erishilgan va belgilangan vazifalar bajarilgan. O.Mamatqulov ishni bajarish jarayonida yetarli nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarni namoyon etdi.

Bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etish mumkin.

Ilmiy rahbar:

F.f.n., dots. A.Vohidov

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti

Sharq filologiyasi va falsafa fakulteti bitiruvchi kurs talabasi

Mamatqulov Oybek Ahadovichning “Pushtu tilida grammatik terminlar”

mavzuidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

An’anaviy usulda yozilgan ushbu bitiruv malakaviy ishi 53 betdan iborat bo‘lib, kirish, birinchi bob, ikkinchi bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Tadqiqotchi ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligini, ayniqsa ushbu mavzuning o‘rganilganlik ko‘lami juda past darajada ekanligini aytib o‘tadi.

Birinchi bobda pushtu tiliga chetdan kirib kelgan o‘zlashma terminlar, ya’ni arab, fors, ingliz tillaridan o‘zlashgan grammatik terminlar hamda ichki imkoniyatlar asosida shakllangan sof pushtu tilidagi grammatik terminlar xususida bayon etilgan. Ular guruhlariga bo‘lingan va taxminiy foizlari keltirilgan.

Ikkinchi bobda fonetika, orfografiya, morfologiya va sintaksisga oid grammatik terminlar keltirilib, ular afg‘onlar (pushtunlar)ning grammatika kitoblaridagi misollar yordamida asoslab berilgan. Birinchi bobning ikkinchi qismida sof pushtu tilidagi grammatik terminlarning struktur tahlili bayon qilingan.

Tadqiqotchi har bir bo‘lim oxirida mavzuni asoslab berish uchun pushtucha grammatik kitoblardagi misollardan keltirib o‘tgan.

Lekin tadqiqotchi bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida manba sifatida faqatgina bitta kitobdan foydalangan. Lekin pushtu tilidagi adabiyot va

manbalarning kamligini hisobga oladigan bo'lsak, ishning sifatiga ta'sir qilmaydi. Tadqiqotchi mavjud imkoniyatdan to'liq foydalangan.

Mazkur ishning xulosa qismida mavzuni o'rganib chiqish va tadqiq etish jarayonida kuzatilgan holatlardan kelib chiqqan holda xulosalar qilingan.

Ishning O'zbekistonda o'rganilmaganligi, hatto boshqa mamlakatlardagi afg'onshunos olimlar tomonidan ham ushbu mavzu bo'yicha ko'zga ko'ringan tadqiqot ishlari amalga oshirilmaganligi va mavzuning keng qamrovli ekanligini inobatga olib, Mamatqulov Oybek Ahadovichning "Pushtu tilida grammatik terminlar" mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishini ijobiy baholash mumkin.

Taqrizchi:

f.f.n.Nizomova F